

YO. Q. HAYITOV

ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI
OQAVA SUVLARINI TOZALASH
BIOTEXNOLOGIYASI



O`quv qo`llanma



ISBN 978-9943-7700-2-7



9 7 8 9 9 4 3 7 7 0 0 2 7



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Yo. Q. HAYITOV

**ISHLAB CHIQARISH KORXONALARI
OQAVA SUVLARINI TOZALASH
BIOTEXNOLOGIYASI**

O'QUV QO'LLANMA

**"Durdona" nashriyoti
Buxoro – 2021**

UO'K 631.8(076.5)

40.40ya7

H 88

Ishlab chiqarish korxonalari oqava suvlarini tozalash biotexnologiyasi [Matn] : o'quv qo'llanma / Yo.Q. Hayitov. - Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdonashriyoti, 2021. - 128 b.

KBK 40.40ya7

Ushbu o'quv qo'llanma 5630100 – ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish ta'lif yo'nalishida tahsil olayotgan talabalar uchun ekologiya fanining bir qismi bo'lib, ishlab chiqarish korxonalari, shu jumladan to'qimachilik korxonalari oqava suvlarini yuksak suv o'simliklari yordamida tozalash usullari, bosqichlari, tozalash jarayonlari va qayta foydalanish nazariyalari yoritilgan

O'quv qo'llanma, mazkur sohada ilmiy tadqiqot ishlarini olib boruvchi biologlar, ekologlar, gidrolog, magistrler va sohaga yaqin bo'lgan mutaxassislari foydalanishlari mumkin.

Taqrizchilar:

S.B. Bo'riyev, BuxDU professori, biologiya fanlari doktori

F.O'.Jo'rayev, TIQXMMI BF professori, texnika fanlari doktori

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 23-noyabrdagi 500-sonli buyrug'iga asosan nashr etishga ruxsat berildi. Ro'yxatga olish raqami 500-463.

ISBN 978-9943-7700-2-7

KIRISH

Biror ishga g‘ayrat bilan kirishgan kishi mashaqqat tortishidan qo‘rmasin. Agar g‘ayrat soyasida maqsadihosil bo‘lsa, juda yaxshi, mabodo ishi yetarli darajadabo ‘lmay keyinga qolib ketsa, oqillar qoshida u kishi uzrlidir. Ulug‘ maqsad yo‘lida himmati baland bo‘lgan kishi xalq ko‘nglida saqlanadi.

(Husayn voiz Koshifiy)

Bugungi kunda tabiiy resurslardan tejab-tergab samarali foydalanish, atrof-muhit muhofazasi, vujudga kelgan ekologik muammolarni bartaraf etish, shuningdek, ekologik madaniyatni yuksaltirish orqali jahon bozoriga yuqori sifatli, ekologik jihatdan sof, raqobatbardosh mahsulotlar yetishtirish kabi dolzarb masalalar barchaning fikr hayolini jalb etib kelmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish yo‘llari va choralar” asarida jahon moliviy inqirozining O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta’siri hamda uning oqibatlarini oldini olish va yumshatishga asos bo‘lgan omillar to‘g‘risida fikr- mulohazalarini bildirar ekan, qat’iy tejamkorlik tizimini joriy etish masalasini ustivor vazifa sifatida ilgari surgan. Bu esa o‘z navbatida tabiat va uning boyliklaridan oqilona foydalanish, atrof-muhitni muhofaza qilish lozimligini anglatadi.

Shu sababli eng muhim va hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan muammolardan bittasi suvni va suv havzalarini har xil ifloslanishdan himoya qilishdir. Shaharlardan, sanoat korxonalaridan, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarishdan chiqadigan oqava suvlarni tozalash usullarini yaratish va ularidan xalq xo‘jaligida foydalanish davr talabi hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi paxtachilikka moslashganligi tufayli paxta tolasini qayta ishslash natijasida ko‘p miqdorda suv ishlatiladi va natijada oqava suvlar hosil bo‘ladi. Oqava suvlarning tarkibi har xil

organik, mineral va kimyoviy elementlardan iborat.

To‘qimachilik korxonalaridan chiqadigan oqava suvlarni tozalash bo‘yicha ayrim olimlar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari qilingan. Bajarilgan ilmiy ishlar asosida oqava suvlarni industrial qurilmada (aerotenkda), ozonlash, suyultirish kabi usullar bilan bajarilgan (Postnikov, 1954; Vasilev, 1965; Voronov, Быкова, 1965; Spivakova va boshqalar 1965;). Oqava suvlarni tozalashda mexanik, fizik, kimyoviy va biologik usullar qo‘llaniladi.

Bu usullar ichida eng samaralisi va arzoni biologik usuldir. Biologik usulda oqava suvlarning tarkibidagi organik moddalar mikroorganizmlar yordamidamineral moddalarga aylanadi va karbonat angidrid gazi ajralib chiqadi. Suvning tarkibidagi mineral tuzlar va karbonat angidrid gazi o‘z navbatida suvda o‘suvchi suvo‘tlari tomonidan iste’mol qilinadi va oqava suv har xil iflosliklardan tozalanadi. Bunday usuldan to‘qimachilik korxonalaridan chiqadigan oqava suvlarni tozalashda foydalanish maqsadga muvofiqdir. Buxoro viloyatida to‘qimachilik korxonalari yaxshi rivojlangan va ulardan chiqadigan mahsulotlar davlatga katta foya keltirmoqda. Lekin to‘qimachilik korxonalaridan chiqadigan oqava suvlar tabiatga katta ziyon yetkazmoqda va ekologik muvozanatning buzilishiga olib kelmoqda. To‘qimachilik korxonalari oqava suvlarini biologik usuldatozalashchun bizlar yuksak suv o‘simligi pistiya (*Pistia stratiotes* L.) dan foydalandik.

Pistiya o‘simligining oqava suvlarni tozalashdagi rolini birinchi bo‘lib R.Sh. Shoyoqubov va uning shogirdlari o‘rganganlar (Xaydarova, 1991; Xasanov, 1995 va boshqalar).

R. Sh. Shoyoqubov va uning kasbdoshlari ilk marotaba pistiya o‘simligi yordamida chorvachilikdan, parrandachilikdan, kanop zavodlaridan chiqadigan oqavasuvlarini tozalash biotexnologiyasini yaratdi(1982).

Tajriba o‘tkazish jarayonida pistiya o‘simligining sistematikasi, biologiyasi, ekologiyasi, anatomiyasi, uni o‘stirish usullari va xalq xo‘jaligida qo‘llanilishi o‘rganilgan.

To‘qimachilik korxonalaridan chiqadigan oqava suvlarini

biologik usul bilan tozalanishi yo'llari shu paytgacha o'rganilmagan. Shu tufayli Buxoro viloyatidagi ayrim to'qimachilik korxonalarining oqava suvini pistiya o'simligi yordamida tozalash biotexnologiyasini yaratishhamda ulardan ikkilamchi foydalanishga oid amaliy tavsiyalar ishlab chiqish kabilar yoritib berildi.

O`quv qo'llanmaning birinchi bobida Buxoro viloyatining geografik o'rni va iqlim sharoitlari baholangan va mazkur masalani o'rganishning asosiy ilmiy natijalari ochib berilgan.

Ikkinci bobda esa yuksak suv o'simliklarini oqava suvlarda ko'paytirishni o'rganilganligi, ularning turlari hamda oqava suvlarni tozalashdagi roli ekologik nuqtai-nazardan tahlil qilingan.

Uchinchchi va to'rtinchi boblarda Buxoro viloyatidagi to'qimachilik korxonalari oqava suvlarining umumiy ta'rifi, to'qimachilik korxonalarining texnologiyasi To'qimachilik korxonalari oqava suvlarida pistiya (*Pistia stratiotes* L.) ni ko'paytirish va ularni tozalash biotexnologiyasi, Vobkent hamda Olot ip-yigiruv fabrikasi oqava suvini tozalovchi inshootlarning umumiy ta'rifi yoritib berilgan.

O`quv qo'llanmaning nashrga tayyorlash va chop etishda o'zlarining qimmatli maslahatlarini ayamagan biologiya fanlari doktori, professor S.B.Bo'riev, geografiya fanlari doktori, professor F.H.Hikmatov, biologiya fanlari dotsenti M.I.G'ulomov, geografiya fanlari nomzodi, dotsent D.P.Aytboev, biologiya fanlari nomzodlari, dotsentlar A.Xolliev, N.E.Rashidovlar va Buxoro davlat universiteti biologiya, ekologiya, tuproqshunoslik va geografiya kafedralari professor-o'qituvtilariga hamda monografiya to'g'risida fikr – mulohazalarini bildirgan kitobxonlarga o'zimning samimiyy minnatdorchiligidagi bildiraman.

I BOB. BUXORO VILOYATINING GEOGRAFIK O'RNI VA IQLIMI

Viloyat hududi O'zbekiston Respublikasining janubi-g'arbida Zarafshon daryosining quyi qismida, janubi-g'arbiy Qizilqum cho'l maskanida joylashgan. Bugungi kunda bu chegara juda muhim ma'naviy, ijtimoiy - iktisodiy, siyosiy mazmunga ega. Hozirgi kunda viloyatning yer maydoni **39,4** ming kv. km ni tashkil qiladi.

Viloyat hududi to'laligicha cho'l zonasida joylashganligi, mahalliy sug'orish suv manbaalariga ega emasligi, buning ustiga daryoning quyi qismida bo'lishi o'lka tabiatining salbiy sifatlari sanaladi.

Viloyat hududining relefi bir qarashda oddiyroq ko'rinsada, uning rivojlanish tarixi, qiyofasi parchalanganlik darajasi o'ziga xos regional xususiyatga ega. Relefning vujudga kelishi ichki va tashqi kuchlar hamda insonning faoliyati bilan bog'liqdir. Viloyat hududidagi eng baland joy Kuljuktog' tizmasi hisoblanib, mutloq balandlik 785 metrga yetadi, va relefдagi umumiyl nishoblik og'itma botig'ini hisobga olmaganda 133 promillga teng bo'lib, Amudaryo o'zani tomoni yo'nalgan. Viloyat relefini geomorfologik xususiyatlariga ko'ra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin.

1. Past tog'lar, platolar kiradi va ularni halqasimon o'rab turgan nishob yuzalar. Bunga tekisliklar orasida orolsimon bo'rtib turgan Kuljuktog', Ko'kchatog', Tuzkoytitog'i, Jarkon, Saritoshkabi, platolar kiradi va relefning eng baland zinapoya hisoblanadi.

2. Tekis yuzali platolar va qirlar Qorako'l, Dengizko'l, Ichbosh, Qoraqir kabilar shular jumlasidandir. Bu guruhga Dengizko'l etagida joylashgan Somontepa, Choshtepa kabi erozion past tog'larni ham kiritish mumkin.

3. Daryo yotqiziqlari bilan qoplangan va shamollar faoliyati tufayli to'ziganakkumlyativ tekislikdir. Bular viloyat hududini asosiy maydonini egallaydi va yassi to'lqinli tekisliklarni tashkil etadi. Ular orasida qumli maydonlar alohida ajralib turadi.

Viloyat hududi cho'l zonasida joylashganligi tufayli doimiy

oqadigan suv manbalariga ega emas.

Buxoro viloyatining suvgaga bo‘lgan talabi azaldan tog‘li yerlar hisobidan to‘yinadigan Zarafshon daryosi hisobidan qondiriladi. Daryoning yuqori qismida suvgaga bo‘lgan talabning oshganligi sababli viloyat hududiga keladigan Zarafshon suvining ulushi yillar davomida kamayib keldi. Karmana tog‘ oralig‘i yo‘lagida uning o‘rtacha yillik suv sarfi 1960-yillargacha $100-120\text{m}^3/\text{s}$ ni tashkil etdi. Bu ko‘rsatgich 1960 yillarning boshlarida $70\text{m}^3/\text{sga}$ tushdi.

Hozirgi kunda daryo suvi Navoiy viloyati hududida butunlay tugaydi.

Zarafshonning Buxoro vohasidan o‘tadigan qismi Markaziy Buxoro zovuri deb,nomlanib qaytarma-oqava suvlarni tashish uchun xizmat qiladi. Ma’lumki, Buxoro viloyatidagi sug‘orma yerlar uchta maskanda Buxoro, Qorako‘l va Qorovulbozor vohalarida mujassamdir. Bu yerdagi obikor yerlarni meliorativ holatini yaxshilash maqsadida zovurlar sistemasi yaratilgan. Bularning aksariyati ochiq zovurlardir. Har yili $0,5\text{km}^3$ hajmdagi qaytarma-oqava suvlar voha tashqarasiga chiqariladi. Bu suvlarning kichik qismi Katta-Tuzkon ko‘li, Parsanko‘l zovuri orqali Amudaryo o‘zaniga quyiladi. Qolgan qismi esa Dengizko‘l, Qoraqir, Og‘itma kabi botiqlarga-tashlama ko‘llarga tushadi. Viloyat zaminidagi qatlamlararo yer osti suvlar ham amaliy ahamiyatga ega. Ular odatda turli darajada sho‘rlangan, bosimli, ba’zi qatlamlarda iliq va minerallashgan. Mineral, suvlar yuqori bo‘r davrining qum va qumtosha qatlamlarida mujassam.

Zarafshon daryosi orqali keladigan oqava va zovur suvlarini, unda erigan tuz - kimyoviy ashyolar viloyat hududiga oqib kiradi va ularining aksariyat qismi shu zaminga to‘planib qolmokda. Bu hol yurtdagi ekologik vaziyatni borgan sari keskinlashtirishga sabab bo‘lmoqda (Nazarov, Alliyorov, 1994).

Viloyat iqlimi bir necha omillarning o‘zaro hamkorligi ta’sirida vujudga keladi. Lekin o‘lka xududining geografik o‘rni bu borada yetakchi ahamiyatga egadir. Agar O‘rta Osiyo o‘lkasini Yevroosiyo materigining ichki qismida joylashganligini ko‘z oldimizga keltirsak, Buxoro viloyati xududi esa O‘rta Osiyo cho‘llarining salkam

o‘rtasidan o‘rin olgan bo‘lib, janubiy (subtropik) cho‘llariga xos iqlimi xususiyatlariga ega. Viloyat hududi uchun subtropik belgilarga xos bo‘lgan keskin kontinental cho‘l iqlimi xarakterlidir. Kecha bilan kunduz, qish bilan yoz haroratlari o‘rtasidagi keskinlik, nisbatan sernam, injiqli bahor, uzoq, quruq, jazirama issiq, o‘ta yorug‘ yoz, qisqa va turg‘unsiz kuz iliq, qishda ayozli, muqim bo‘lmagan qish viloyat iqlimining asosiy belgilaridan biridir.

Viloyat serquyosh o‘lkalardan biri hisoblanadi. Yil davomida quyoshli damlar 2800 - 3000 soatga yetadi. Quyoshdan kelayotgan radiatsiyaning yalpi miqdori 150 - 160 kkalga teng. Foydali haroratning, ya’ni o‘rtacha kundalik musbat 10 darajadan ortiq bo‘lgan haroratning yillik yig‘indisi 4800-5100 darajaga yetib boradi. Bu hol o‘ta issiqsevar madaniy o‘simpliklar yetishtirish imkoniyatini yaratadi. Viloyatda eng sovuq muddat yanvar, eng issiq esa iyul oylaridir. O‘rtacha yillik harorat Buxoroda 14.2, Qoraqo‘lda 15.0 darajaga teng. Ammo havo haroratining yil davomida o‘zgarishidagi farq (amplituda) juda katta - 68° S - 72° S darajani tashkil qiladi. Viloyat hududida tabiiy namlik yetarli emas. Atmosfera yog‘inlarining yillik miqdori 90 - 150 mm ni tashkil qiladi. Yer betidan mumkin bo‘lgan parlanish esa 2000 mm gacha yetadi. Bu jihatdan Buxoro hududi o‘ta qurg‘oqchil (arid) zonaga mansubdir. Yog‘inlar aksariyat yomg‘ir tarzida namoyon bo‘ladi. Qor qoplami surunkali va qalin bo‘lmay, uzoq saqlanmaydi. Yog‘inlarning yil davomida taqsimlanishi nixoyatda notekisdir. Bahor nisbatan eng sernam fasl bo‘lib, yillik yog‘inning 45 - 55 foizi shu muddatga to‘g‘ri keladi. Yoz o‘ta quruq, havoning nisbiy namligi juda pasayadi, iyul - avgust oylarining ba’zi kunlarida bu ko‘rsatkich 10-20 foizga kamayadi. Viloyat hududida kecha-kunduz o‘rtasidagi haroratning keskin bo‘lishi tufayli bahorda, kuz fasllarida shudring qirov, namreza kabi tabiiy hodisalar sodir bo‘lib turadi.

Viloyat iqlimida mahalliy shamollarning alohida o‘ringa ega hisoblanadi. Shamolning ta’siri aynan cho‘l zonasida kuchli namoyon bo‘ladi. Viloyat hududida shamollar aksariyat shimol tomondan esadi. Ba’zida viloyat hududida qora sovuqlar, sel va do‘l yog‘ishi, yozgi

garmsellar, chang - to‘zonli shamollar o‘ta ayozli qahraton qishlar kabi ofatli iqlimi hodisalar ham bo‘lib turadi.

Keyingi yillarda Buxoro xududida qish oylarida (yanvar) o‘rtacha haroratning sal ko‘tarilganligi (0.3 – 0,5 daraja) va o‘rtacha yillik yog‘in miqdorining birmuncha (10 - 20 mm) ortganligi kuzatilmoxda (Nazarov, Allayorov, 1994).

Umuman olganda, viloyat iqlimi resurs sifatida beba ho tabiiy boylikdir. Ayniqsa quyoshli damlarining, foydali haroratning yetarlicha bo‘lishi o‘lka iqlimining ijobiy sifatlari hisoblanadi.

Viloyat hududining barcha qismida o‘simgiliklarni o‘sibirish va ulardan yuqori hosil olish uchun barcha tabiiy ekologik sharoitlar yetarli.

Nazorat savollari

- 1. Hozirgi kunda viloyatning yer maydoni necha ming kv. km ni tashkil qiladi?**
- 2. Viloyat hududi to‘laligicha qanday zonada joylashgan?**
- 3. Viloyat relefini geomorfologik xususiyatlariga ko‘ra qanday guruhlarga ajratish mumkin?**
- 4. Zarafshonning Buxoro vohasidan o‘tadigan qismi nima deb nomlanadi?**
- 5. Viloyat hududida shamollar aksariyat qaysi tomondan esadi?**
- 6. Buxoro viloyatidagi sug‘orma yerlar nechta maskanga bo‘linadi va ular qaysilar?**
- 7. Viloyatning geografik xususiyatlarining ijobiy tomonlariga to‘xtalib o‘ting.**

II BOB. SANOAT KORXONALARI OQAVA SUVLARNING UMUMIY TASNIFI

Sanoat korxonalarining oqava suvlari texnologik jarayonida toza suvlarni ishlatish oqibatida paydo bo‘ladi va korxonalar kanalizatsiya orqali shahar tashqarisiga chiqariladi. Suvning tarkibiy qismi nihoyatda har xil bo‘lib, ulardagi asosiy ingridientlarning miqdorlari ham bir xil emas. Chiqindi suvning tarkibiy qismidagi moddalar organik va neorganik bo‘lishi mumkin. Korxona chiqindi suvlarningtexnik va kimyoviy xossalari ko‘ra, ulari suv havzalariga tashlash man etiladi. Ochiq suv havzalariga bunday suvlarni tashlash uchun albatta zararsiz holatga keltirilishi shart. Chiqindi suvlar tarkibida hozirda ko‘proq sintetik, chidamli, uzoq vaqtgacha parchalanmaydigan moddalar juda ko‘pdir.

Hozirgi vaqtida O‘zbestondagi 140 dan ziyod eng yirik sanoat korxonalaridan doimo chiqindi suvlar chiqadi.

Korxonalarda texnik suvlar quyudagi maqsadlar uchun ishlatiladi:

1. Turli agregatlarni qizib yoki erib ketishidan saqlashda ishlatiladi, jumladan,metallurgiya sanoatda temir-po‘lat eritishda keng ishlatiladi. Suv aggregatlarni sovitish uchun berk sistemadan aylanib turadi, sistema yaxshi ishlasa, suvning tempurasi ko‘tarilishi mumkin, u boshqa xossalarga ega emas.
2. Suv qand ishlab chiqarish sanoatidan turli moddalarni eritib olish uchun ishlatiladi. Bunday chiqindi suv tarkibi organik, erigan va qalqiydigan mayda zarralarga boy, qand erigan holda suv bilan chiqib ketadi.

3. Ishlab chiqarish mahsulotlarini ishlash uchun reaktivlarni eritishda, metallarni sulfat va nordon kislotalarda ishlashda ishlatiladi, chiqindi suv tarkibida ko‘p miqdorda temir oksidi bo‘lib, nordon reaksiyali suvlardir. Terini ohak, oshlov moddalari bilan ishlash oqibatida suvda ko‘p miqdorda xrom, reaktiv qoldiqlari va boshqa organik modda iflosliklari mavjud.

4. Suv to‘qimachilik fabrikalarida bo‘yalgan matolarni yuvish uchun ishlatiladi, suv tarkibida buyoq qoldiqlari va boshqa moddalari aniqlaniladi.

5. Gaz va gassimon aralashmalar tarkibidagi moddalarini ajratib olish maqsadiga ham suv ishlatiladi. Jumladan, metallurgiya kombinatlarida domna gazi, qand ishlab chiqarishda-karbonat angidridi gazi yuviladi, ammiakni esa koks gazini yuvish bilan olinadi.

6. Kimyoviy va spirt ishlab chiqarish zavodlarini apparatlarini yuvish uchun suv ishlatiladi.

7. Suv konlar shroitida qattiq moddalarini ajratib olishda-ko‘mir yuvishda, boyitish fabrikalari va hokazoda keng ishlatiladi.

8. Suvni elektrostansiyalarda kulni haydash uchun, alyuminiyni olib bo‘lingandan so‘ng loyni yuvish va boshqa jarayonlarda ishlatish mumkin.

Suv texnologik jarayonlarida apparatlar, agregatlar reaktiv moddalar va boshqalar bilan yaqin kontakda bo‘lganda o‘z tarkibini, xossalarini o‘zgartirib yuboradi. Erigan moddalar, har xil ishlanadigan materiallar va suv tarkibida ketib chiqindi suvga maxsus xossa beradi, bu esa o‘z navbatida korxonalarning xarakteriga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Olimlardan S.N.Strogonovning aytishicha, sanoat korxona chiqindi suvlarida organik va niorganik birikmalar har xil holatdabirikmada qattiq va suyuq kolloit fazada uchrab turadi ammo juda ko‘p hollarda chiqindi suvlarda negadr fosfor, azot kaliy elementlari uchramaydi, bunday suv patogen mikroorganzidan holi tozalangan (sterillangan) bo‘ladi. Har bir sanitariya vrachi, sanoat korxona chiqindi suvlarini o‘rganishni boshlar ekan, u avvalo texnologik jarayoni to‘la to‘kis o‘rganishi chiqindi suvlar tarkibida qanday zararli moddalar bo‘lishini va qanday zararli xususiyatga ega ekanligini bilishi shart shundagina uning mo‘ljallangan ish yo‘nalishi yaxshi natija berishi mumkin. Shuning uchun, suv namunalarini har 30-60 minutda ma’lum miqdorda butun ish smenasi, balki undan ham ko‘proq vaqtga mo‘ljallab olinishi va analiz qilinishi kerak. Shunday olingan o‘rtacha analizlari to‘g‘ri ishonchli dalillarni beradi.

Sanoat korxonalari chiqindi suvlarining o‘ziga xosligi, ulardagi zaharli moddalarning borligidandir: jumladan suv tarkibida fenollar, teanidlar, marganet, mis, ftor, qo‘rg‘oshin, smob, kadmi, xrom nitro birikmalar va boshqa kimyoviy moddalarning mavjudligi va kishi organizmiga, suvning flora va faunasiga xavf tug‘diridishidandir

hattoki bir sanoat korxonasi dagi chiqindi suvlarda bir necha zararli moddalarning borligi aniqlangan, chunki ishlab chiqarishning har xil bosqichlaria turli xil kimyoviy moddalarning ishlatalishi, olinishi qatnashishi mumkin. Shuning uchun ham korxona chiqindi suviga sanitariya tomonidan baho berishda umumiyliz zavodning birlashib chiqayotgan chiqindi suviga emas balki har bir sexda paydo bo‘ladigan chiqindi suvlar tekshirilib laboratoriya analizi o‘tkazilib, undagi ingridientlarga qarab baho berilishi kerak. Shu yo‘llar, usullar bilan ularni zararsiz holatga keltirish mumkin.

Sanoat korxonalarining chiqindi suvlari suv havzalariga, undagi jonivorla, odam organizmiga juda kuchli ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ba’zi bir korxonalar-go‘sht ishlab chiqarish, teri ishslash, qand, gidroliz va boshqa zavodlar chiqindi suvlarning tarkibi organik moddalarga boy bo‘lib, ular asosan o‘simlik va hayvonot dunyosidagi organik moddalardir, ularni tarkibida qalqib yuruvchi mayda zarralar va suv tarkibida cho‘kib ikkilamchi ifloslantiruvchi omillarga aylanadi.

Boshqa sanoat korxonalarining chiqindi suvlarining tarkibida juda ko‘p miqdorda mineral tipida qalqiydigan moddalar bo‘lib, ular cho‘kib suv havzalarini sayozlanishiga olib boradi, keyinchalik botqoqlar paydo qilib, daryo tagidagi yashaydigan jonivorlarning qirilishiga olib keladi.

To‘qimachilik kombinatlari, metal ishslash zavodlari va kimyo korxonalardan chiqin suv tarkibida ko‘p miqdorda zaxarli moddalar bo‘ladi, ular suvdagi tirik organizmlar va aholi uchun o‘ta zaharlidir. Sanoat korxonalarining chiqindi suvlar ta’sirida suvning rangi o‘zgaradi kimyoviy moddalar suv mazasini hidini o‘zgartiradi.

Nordon va ishqorlik chiqindi suvlar suvning reaksiyaga kirishini o‘zgartirib yuboradi. Yog‘lar neft qoldiqlari suv yuzasida yupqa pardalar hosil qiladi, suvga oksigelni o‘tishiga qarshilik ko‘rsatiladi. Suvning tashqi ko‘rinishini buzadi.

Ba’zi bir korxonalar chiqindi suvlari turli infeksiya kasalliklarini tarqalishiga sabab bo‘ladi, masalan biofabrikalar, mo‘yna, teri ishlaydigan fabrikalar chiqindilarda kuydirgi kasalliklarini tarqatuvchi mikrob bo‘lishi mumkin.

Umuman olganda chiqindi suvlar bilan suv havzalarini ifloslanishi xalq xo‘jaligida, odamlar sog‘ligiga va tabiatiga juda katta zarari bor.

Sanoat korxonalari chiqindi suvlarini tozalash va zararsiz holatga keltirish eng asosiy masala bo‘lib qoladi.

Bu borada respublikada olib borilayotgan juda ko‘p ilmiy ishlar, tajribalar, shu sohada ishlab turgan hozirgi tozalash inshshotlarini chiqindi suvlarni tozalash va zararsizlantirishni yanada mukammallashtirish, sanoat korxonalari uchun tozalash inshootlarini qurish va ishlatish – bu masalani ijobiy hal qilishda ahamiyat kasb etadi.

Ammo shuni aytish kerakki, ko‘p hollarda tozalash inshootlarining chiqindi suvlarini va zarasizlantirishning yangi usullarining joriy qilish ancha murakkab bo‘lib, juda katta mablag‘ni talab etadi. Shuning uchun loaqla umumiylardan tadbir choralarni amalga oshirish ahvolni anchagina yengillashtiradi va yordam beradi. Jumladan sanoat korxonalari uchun yangi joyni tanlash, chiqindi suvlarni suvga tashlaganda aholining suvdan foydalanishiga zarar bermasligini ta’minlash yoki chiqindi suvni zarasiz holatga keltirishni tashkil qilish; korxonalarda suvni kam ishlatish yo‘llarini rejalashtirish, hom ashyoni tejamli ishlatish, reaktivlarni suvga tushishini kamaytirishi, apparat vauskunalarni yaxshi berkitilishini ta’minlaydi; suvni qayta ishlatishni tashkil qilish, unda chiqindi suvlar miqdorini iloji boricha kamaytirish; sexlarda paydo bo‘ladigan chiqindi suvlarni alohida-alohida kanalatsiyatsiyaga tushirish agar korxona chiqindi suvi o‘zining tarkibi va xususiyati bilan shahar chiqindi suviga o‘xshasa unda chiqindi suvi umumiylardan kanalizatsiya suviga qo‘sish tavsiya qilinadi, pirovardida hamma chiqindi suvlar shaxar tozalash inshootlarida tozalanadi vazararsiz holatga keltiriladi.

Agar sanoat korxona suvlari ochiq suv havzalariga tushiriladigan bo‘lsa, quyidagilarga ahamiyat berilishi kerak:

1. Issiq chiqindi suvlarni fontanlarda, suv soladigan hovuzlarda sovutilib, so‘ngra ochiq suv havzalariga tushiriladi.
2. Neftlarni, yog‘larni nisbiy zichligi kam bo‘lgan moddalarni maxsus ushlagichlarda tozalanadi.

3. Kislotali chiqindi suvlarni dolomit yoki ohak bilan neytrallash lozim.

4. Qalqiydigan moddalarni tindirgichlarda ushlab qolish, shularga mos moslamalar tayyorlash va tindirgichlar tagida cho'ktirishni ta'minlash.

5. O'simlik va hayvonlarning organik moddalari bilan ifloslangan chiqindi suvlarni biologik usullar bilan tozalashni ta'minlash.

6. Kimyoviy zararli moddalarni ajratib olish, parchalash, shimdirish va tiklash usullaini qo'llab, ularni ochiq suv havzalariga tushmasligini ta'minlash.

Agar korxonalardan chiqadigan chiqindi suvlar tarkibida organik moddalar ko'p bo'lsa, unday suvlarni biologik metodlar bilan tozalash va zarasizlashtirish kerak.

Metallurgiya zavodlari. Bu zavodlarda texnologik jarayonlar asosan quyidagicha: 1.domna o'choqlari temir rudasidan cho'yanni eritib olishi; 2. Marten o'choqlarida cho'yandan po'lat eritib olish; 3. Po'latni ishlash, undan temir izlar, to'sinlar yasaladi. Bu jarayonlar juda yuqori haroratda kechadi. Metallurgiya zavodlarida 75% suv ishlab chiqilgan mahsulotni sovutish uchun sarflanadi. Eng ko'p chiqindi suv domna o'chog'ida, po'lat eritish va prokat sexlari paydo bo'ladi.

Oqava suv meyori deb, kanalizatsiyadan foydalanuvchi har bir kishiga bir kunda to'g'ri keluvchi l\sut. dagi oqava suv miqdoriga aytiladi. Aholi punktining kanalizitsil tizimini loyihalash tirishda oqava suv meyori suv istemoli meyoriga ming deb qabul qilinib, binolarning obodonchilik saviyasiga bog'liq holda QM va Q 2.04.03 -97 ga asosan topiladi.

Eslatma: Kanalizatsiyalarda mavjud bo'lmagan oqava suv meyori bir kishi uchun 25l/ sut qabul qilinadi.

Berilgan oqava suvlar meyori jamoat binolar (hammom,maktab, bolalar bog'chasi, poliklinika) kir yuvish korxonalari,kasalxonalar, sanatoril va dom olish uylarining oqava suvlari o'z ichiga oladi sanoat va qishloq xo'jaligi korxonalar chiqayotgan hisobi o'rtacha sutkali oqava suvlar sarfi texnologik qiymatlar asosida hisoblanadi.

Kanalizatsiyalanmagan rayonlardagi oqava suvlar meyori sutkasiga bir kishi uchun 25lit/sut qabu qilinadi.

Shahar va sanoat korxonalarining kanalizitsiya loyihasida nafaqat oqava suv meyori, umumiy suvlar sarfi aniqlanadi, balki oqava suvlarning sarfining sutkada soatlar bo'yicha o'zgarishi, maksimal sarflar qiymati va suvning oqish rejimi ham hisobga olinadi. Bu esa oqava suvlarning sutkali, soatli, umumiy notekislik koeffitsientlari orqali aniqlanadi.

Amalda tozalash inshootlari hisobida, sutkali, soaotli, umumiy notekislik kayffitsentlari qo'laniladi. Sutkali notekisilik kayffitsenti shahardan kelayotgan kommunal ro'zg'or oqava suvlar oqimini o'zgarishini baholash uchun qo'llaniladi va mahalliy sharoitga bog'liq bo'lib, K sut =1.1-1.3 teng. Oqava suvlarning umumiy notekislik kog'ffitsenti o'rtacha sekundli sarfga bog'lik bo'lib KM vak 2.04.03-97 ning 2.2 bandi bo'yicha olinadi.

Okova suv tarkibi va xususiyatlari Okova suvlar suv havzasiga tashlanishdan oldin tozalanishi shart. Okova suvlarni tozalash darajasi okova suv tarkibi va mikdori hamda suv havzasining sarfi va sifat ko'rsatgichlariga bog'lik. Tozalash inshootlarini to'g'ri loyixalashtirish uchun suvlarning ximyaviy bakteriologik analiz kilib uning tarkibini bilishimiz zarur.

Oqava suv tarkibidagi kolloid va erigan moddalarning ximyaviy tazkibiga oziq-ovqat mahsulotlardi oqsil yog'lar uglevodlar hamda vodorod suvidagi gidrokorbanat sulfatlar kiradi.

Kolloid moddalar 2 xil bo'lib:

Gidrolid-to'kimmalar selluloza kraxmal kabi uglevodlar va gemoglobin hayvon va balik moyi eman oqsillar sovun bo'yoklar va hokazo gidrofod-loy ko'mir temir va alyuminiy oksidlari.

Erimagan moddalar -zarrachalarning o'lchami(dispechirligi) ularning solisheirma og'irligi va okim tezligiga karab:

- Suv yuzasiga qalqib chiqadi(yog', qog'oz, yog'och bo'lakchalari);
- Osig'lik holda(suzpenzil) bo'ladi;

-Quvur tubida cho'kma sifatida (qum, organik modda bo'laklari) harakatlanadi.

Mineral iflosliklarga qum, tuproq, ruda zarrachalari, shlak,

mineral muzlar, kislota, ishqorlar va boshqalar kiradi. Organik iflosliklar o‘z navbatida o‘simlik va hayvon qoldiqlariga bo‘linadi.

O‘simlik qoldiqlariga-liva, sabzavot, qog‘oz va boshaqalar qiradi. Bo‘nday iflosliklarning ximilviy tarkibini asosan uglerod tashkil qiladi.

Hayvon qoldiqlariga –hayvon va insonlarning fiziologik chiqidilari, go‘sht qoldiqlari,yog‘ moddalari va boshqalar kiradi. Bularning ximiyaviy tarkibini asosan azot tashkil qiladi. Oqava suv tarkibidagi organik iflosliklar turli bakteriyalarning rivojlanishi uchun qulay muhit hisoblanadi. Shuning uchun ham oqava suv tarkibida ko‘p miqdorida bakteriologik iflosliklar bo‘ladi.

Bakteriologik iflosliklarga tirik mikrofganizmlar va turli bakteriyalar kiradi. Bakteriologik iflosliklarni shartli ravishda saprofit va patogen turlarga bo‘lishi mumkin. Saprofit bu xavsiz bo‘lib , insonga sog‘ligiga zarar yetkazmaydi,masalan achitqi va mog‘or zambrug‘lari. Patogen bakteriyalar xavfli bo‘lib inson sog‘ligiga xavf soladi, masalan qorin tifi, paratif dizentariya (ichburug‘), sibir yarasi, xolera (vabo) kabi kasallikkarni qo‘zg‘atuvchi bakteriyalar hamda inson va hayvonlarning fiziologik chiqindilri orqali suvga tushadigan gelmint tuxumlari (gijja) hisoblanadi. Bir mg oqava suv tarkibida bir nechta million donagacha bakteriyalar bo‘lishi mumkin. Kolindeks-bir litr suvdagi ichak tayoqchalar soni, kollitir esa bir ichak tayoqchasiga to‘g‘ri keluvchi suv hajmi. Bakteriologik ifloslikni aniqlash uchun “kolli” bakteriyalari deb ataluvchi ichak qalamchalarining mavjudligini tekshiruvchi bakteorologik tahlil amalga oshirilishi kerak.

Xo‘jalik chiqindi suvlarining hosil bo‘lishi, tarkibi, xossalari va suv havzalariga ta’siri.

Inson organizmi o‘zini qurshab turgan tashqi muhit bilan chambarchas bog‘liqdir. Tashqi muhitning ifloslanishi kishi organizmiga salbiy ta’sir etishini yuqorida keltirilgan dallillar ham tastiqlaydi. Shuning uchun ham tashqi muhitni asrash-inson sog‘lig‘ini saqlash va kasalliklar oldini olishning eng zarur choralarini hisoblanadi.

Tashqi muhitning asosiy omillaridan biri bo‘lgan suvning organizmga ta’siri va kasallik keltirib chiqarishdagi roli juda katta bu masala turli adabiyotlarda yetaricha yoritilgan. Ayniqsa, suv omilining oshqozon-ichak kasalligini, gepatit singari og‘ir yuqumli kasallikkarni tarqatishdagi roli ancha kattaligi fanga ma’lumdir. Shuning uchun ham xo‘jalik ahlatlari, chiqindi suvlar tarkibini bakteriologik, gel’minotologik jihatdan samarali tozalash, zararsiz holga keltirish ochiq suv havzalarini ifloslanishdan asraydi va ko‘p kasallikkarning oldini oladi. Sanitariya-texnika tadbirlarining hammasi tozalash inshootlari samarali ishlashiga va suvdan kelib chiqadigan turli yuqumli kasalliklarining oldini olishga qaratilgan bo‘lishi kerak.

Ma’lumki, chiqindi suvlarni qabul qilib oladigan har bir jihozli moslamadan o‘tayotgan suv sifon orqali o‘tadi. Bu esa xonalarni badbo‘y hid va gazlardan asraydi.

Chiqindi suvlar jamoa va uy-joy binolardan ichki kanalizatsiya tarmoqlari orqali hovli hamda ko‘cha kanalizatsiya tarmoqlariga o‘tadi. Paydo bo‘ladigan jami chiqindi suvning miqdori har bir kishi uchun sarflanadigan suv miqdorini sanoat korxonalarida esa har bir ishlab chiqarish uchun ketgan suv miqdorini o‘lchash bilan aniqlanadi. Suv sarfi mamlakatlar taraqqiyoti , ularning madaniy darajasiga ham bog‘liq bo‘ladi. Mutaxasislar bergen malumotlarga qaraganda keyingi yillarda eng taraqqiy yetgan davlatlarda suv istemoli kishi boshiga sutkasiga 800-900 litr to‘g‘ri kelgan bir vaqtida endi rivojlanayotgan mamlakatlarda bu miqdor 30 litrni tashkil etadi.

Har bir kishiga suv sarfi iqlim sharoitiga, mintaqalarning obodligi darajasiga, taraqqiyotiga va ishlab chiqarish korxonalarining ham o‘ziga xos xususiyatlariga bog‘liqdir.

2.04.-85rqamli Sanitariya meyori va qoidasida yangi qurilayotgan ob’ektlar uchun suvning tahminiy sarf me’yorlari beriladi.

Chiqindi suvlar ichki kanalizatsiyasiya shaxobchalari orqali tashqi kanalizatsiya tarmoqlariga tushadi, so‘ngra o‘z oqimi bilan quvurlar, kanallar tizimi orqali nasos stansiyalariga yoki tozalash inshootlariga oqib boradi.

Mahallalar xududida kanalizatsiya shaxobchalari ko‘cha kanalizatsiyalari bilan birlashadi, ular chiqindi suvlarni kollektor

yordamida tozalash inshootiga eltadi. Kollektordagi chiqindi suvlari ham qo'shiladi. Odatda, kanalizatsiya suvlari turar-joylardan tozalash inshootlariga o'z oqimi bilan boradi, lekin yer maydonlarining tekisligi, joylarning baland-pastligi chiqindi suvlarning oqimga xalaqit bersa, suvni haydab beradigan nasos stansiyalari quriladi. Ular suvni bosim bilan o'zi oqar kollektorlarga, tozalash inshootlariga oqizib beradi.

Bulardan tashqari, aholi turar joylaridan korxonalar maydonlaridan yomg'ir qor va yuvindi suvlarni olib chiqib ketish uchun ularga truboprovod yoki kanilatsiya shaxobchalari quriladi.

Suvlar kelib chiqishiga, xususiyatiga ko'ra alohida, yarim alohida va umumiy kanalizatsiya suvlariga bo'linadi.

Alohida qurilgan kanalizatsiya tizimi yer ostida 2 tarmoqdan iborat bo'ladi: xo'jalik chiqindi suvlari va yomg'ir, qor hamda yo'llarning yuvindi suvlari uchun qurilgan tizim.

To'liq ajratilgan kanalizatsiya tizimida xo'jalik chiqindi suvlari va yomg'ir suvi alohida-alohida yer osti kanalizatsiyasi orqali oqiziladi. To'liq ajratilgan kanalizatsiya tizimida yomg'ir, qor va boshqa yuvindi suvlar ariq va zovurlar orqali oqiziladi, xo'jalik chiqindi suvlari esa yer ostida alohida quritilgan kanalizatsiya orqali oqiziladi.

Chala yarim ajratilgan tizim bosh kollektor bilan qo'shilgan 2 tarmoqdan iboratdir. Yomg'ir suvlari va boshqa suvlar uchun mo'ljallangan tarmoq bosh kollektorga suv taqsimlovchi maxsus kameralar yordamida ulanadi. Aks hollarda sel kelgan vaqtarda mazkur tizimga yomg'ir suvini sig'dirib bo'lmaydi, shuning uchun kameraladan ortib qolgan suv ochiq havzalarga oqiziladi.

Umumiy kanalizatsiya tizimida xo'jalik chiqindi suvlari, yomg'ir, qor va boshqa suvlar yer osti kanalizatsiya tizimi orqali tozalash inshootlariga oqib boradi. Sel kelgan vaqtida umumiy kanalizatsiya tizimi ishini ozroq bo'lsa-da kamaytirish uchun suv taqsimlovchi kameralar o'rnatilib, ortiq suv ochiq havzalarga tushiriladi.

Aholi turar joylaridan keladigan kanalizatsiya suvleri shahar tozalash inshootlariga tushiriladi. Lekin ochiq suv havzalarini

chiqindi suvlardan 100% asrab qolib bo‘lmaydi. Chunki shahar tozalash inshooti 85-90 % chiqindi suvlarinigina tozalay oladi.

Chiqindi suvlar o‘zi bilan erigan, muallaq moddalarni yo‘lida uchragan loylarni, qumlarni, po‘choqlar va qog‘ozlarni tozalash inshootlariga oqizib keladi. Kanalzatsiya suvlari doimo bir xil bo‘lmasligi mumkin. Ayniqsa, uning konsentratsiyasi, miqdori, ifloslantiruvchi ingridientlari farq qiladi, goho katta tafovutlar bo‘lishi mumkin.

Xo‘jalik chiqindi suvlarining tarkibiy qismiga, xossalariغا baho berish uchun ular namunalarni tahlil qilish kerak bo‘ladi. Bu suvlarning kimyoviy tarkibi anorganik moddalarni ko‘proq ushlashi bilan farq qiladi, ko‘p moddalar esa erigan holda bo‘ladi.

Umumam olganda, chiqindi suvdagi iflosliklarning 60%i organik moddalarning 2 ko‘rsatgichi- suvning oksigenga bo‘lgan bio kimyoviy talabi va organik moddalarni kimyoviy yo‘l bilan oksidlash uchun sarflangan oksigen miqdori bilan aniqlanadi. Suvning oksigenga bo‘lgan bio kimyoviy ehtiyoji to‘lalagi 5 kunda yoki 20 kunda aniqlanadi.

Chiqindi suvlar muhiti rN – 7,2 – 7,6 atrofida bo‘lib turib qolsa chiriy boshlaydi. Ularga baho berishda quyidagi ko‘rsatgichlarga ahamiyat beriladi: suvning organolektik xususiyati, oziqliq moddalari, oksidlanishi va oksigenga bio kimyoviy extiyoji, azot ammoniy hamda mitratlarni saqlash darajasi. Nitrit va nitratlar suvdagi nitrisikatsiya jarayonlarini, yani organik moddalarni mineral anorganik moddalarga aylanishini ko‘rsatadi.

Bulardan tashqari, suv namunalarida xildoritlar borligiga ahamiyat beriladi. Xo‘jalik chiqindi suvlari turli yuqumli kassalliklar tarqalishi hafini tug‘diradi. Chunki ularning tarkibida juda ko‘p miqdorda bakteryalar, gelmit tuxumlari, viruslari bo‘dadi. Masalan, 1ml. Chiqindi suv tarkibida bakteryalar miqdori millionlab,o‘n millionlab hisoblanadi, ichak tayoqchasining titri -10^5 - 10^7 bo‘ladi. Olima V. Antonova 1litr suvda o‘nlab va yuzlab telmit tuxumlarini aniqlagan. Shu bilan chiqindi suvlar tarkida mineral oldida shu moddalarni ajratib olish, ulardan qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik bilan foydalanishga ko‘maklashish masalasi ham turadi.

Shuni xisobga olish kerakki, chiqindi suvlar qanday usul bilan tozalanmasin, pirsivardida ochiq havzalariga tashlanadi. Bu narsa suv havzalaring aholi suv manbai sifatida foydalanish imkoniyatini cheklaydi, ular o‘z navbatida yuqimli kasalliklar tarqalish hafini bartaraf tug‘diradi.

Xo‘jalik chiqindi suvlari ochiq suv havzalari suvning tabiiy xolatini o‘zragtiradi, uni loyqalashtiradi, babo‘y qilib qo‘yadi. Bu esa suvdan foydalanishni chegaralaydi. Oqava suvga tushayotgan osig‘liq jinslar suv sartida cho‘kmalar xosil qilad, suvni ifloslantirivchi qo‘sishimcha manbani yaratadi. Suv tarkidagi organik moddalar parchalanib, erigan oksigen ko‘p sarflanishiga olib keladi.

Suvdagagi oksigen sarflashib qolsa, suv chiriy boshlaydi. Daryolar o‘lik suv mannbalariga aylanadi, ulardan esa qo‘llansa g‘idlar chiqadi.

Xo‘jalik chiqindi suvlari bilan patogen mikroblar-qorin tifi, parativ, ichburuq va boshqa ichak infeksiyalari suv havzalariga tushadi. Oshqozon-ichak yo‘li kasalliklari ko‘pincha kanalizatsiya suvlarini zararsizlantirmaydi, ochiq suv havzalariga tashlashdan kelib chiqadi.

Shahar chiqindi suvlarini tozalashdagi asosiy vazifalar quydagilardir:

1 chiqindi suvlarini osig‘liq mineral va organik moddalardan holi qilish (mexanik usulda tozalash) ;

2 chiqindi suyuqlikni kolloit va erigan organik moddalardan holi qilish (biologik usullarni qo‘ddab tozalash);

3 chiqindi suyuqlikni potogen-kasallik jaqiruvchi mikrofloralardan xoli qilish (zararsizlantirish) ;

4 cho‘kma qoldiqni zararsizlantirish va undan tadvirkorlik bilan foydalanish.

Chiqindi suvlarni mexanik usulda tozalash. Chikindi suvlarni bunday usulda tozalash uchun dastlab panjara quriladi, u suvdagi yirik chiqindilar-latta, paxta,qog‘oz, po‘choq va boshka oqar narsalarni ishlab qoladi, chunki ular suv tozalash jarayonlarini murakkablashtiradi.

Panjara bir-biriga mafosiy ulangan temir simlardan iborat bo‘lib, suv oqimiga qarshi tik qilib o‘rnashtiriladi. Sim panjaralar

kataklarining orasi 16-30 mm atrofida bo‘ladi. Ular ushlab qolgan chiqindilar mexanik usulda pashaxalar bilan olinib, gidrotramsportyorlar yordamida maydalaydigan mashinalarga uzatiladi. Bu mashinadan chiqqani yana panjara oldidan tashlab yuboriladi.

Chiqindi suvlari kengi bosqichda qum ushlagich inshootga o‘tadi, undagi suvdagi og‘ir moddalar, qumlar va boshqa aralashmalar cho‘ka boshlaydi. Qum ushlagich asosan tindirgich bo‘lib, suvdagi og‘ir zarachalarni cho‘ktirishda va organik moddalardan yarim cho‘kma hosil qilishda vositachilik qiladi. Bu tindirgichlarda 65 % qum cho‘kib qoladi. Ulardagi qum maxsus moslamalar yordamida bunkerga to‘planadi va turli chuqurlarni to‘latishga ishlatiladi.

Qum tindirgichlar suv oqimi tezligini sekundiga 15dan 30 sm gacha kamaytiradi. Bunday gindirgichga xosil bo‘lgan cho‘kmalar ikki sutkada bir marta olinishi kerak.

Suv qum tindirgichdan o‘tgandan so‘ng uning tarkibida yaxshi erimagan osig‘liq jinslar qoladi, bu organik moddalarni ajratib olish uchun suv tindirgichlar kerak bo‘ladi.

Chikindi suvlari biologik usul bilan tozalashga qadar birlamchi tindirgichlardan o‘tadi.

Biologik suv havzalari

Biologik suv havzalari 1 gektarcha yoki kattaroq maydonni egallaydi, chuqurligi 0,5-1 metr bo‘ladi. Bu havzalar chiqindi suvlardagi gelmintlardan, patogen mikroblardan holi bo‘lishuchun foydalaniladigan suv havzalaridir. Agar sug‘orish maydonlari suvni qabul qilmay u ortib qoladigan bo‘lsa,bunday suv shu havzalarga tushirilsa bo‘ladi.

Chiqindi suvlari qishloq xo‘jalik maqsadlari uchun ishlatishga mo‘ljallansa, ularni zararsizlantirish uchun kichik suv havzalaridan foydalanish mumkin,bular ichida oksidlovchi biologik suv havzalari ancha ahamiyatlidir, ularda ichak tayoqchalarining 99,9 % o‘ladi va bu suvlari gelmintlardan butunlay quritiladi.

Biologik suv havzalari kam miqdordagi chiqindi suvlarni tozalashga mo‘ljallangan. Biologik oksidlovchi suv havzalari yozda keng qo‘lamda ishlatilsa bo‘ladi. Bunday suv havzalari chiqindi

suvlarni asosan patogen bakteryalar va gelmintlardan holi qilish uchun ishlatiladi (M.M. Telitchenko).

Chiqindi suvlarni bunday suv havzalarida tozalash uchun, masalan, Qozog‘istonning janubiy va O‘zbekistonning shimoliy rayonlariga 6 – 8 kun kerak bo‘ladi.

Oksidlovchi hovuzlar ishi samarali bo‘lishi uchun ular bo‘linmalarga bo‘linadi. Bu bo‘linmalar alohida ishlaydi, har biri chiqindi suvlar bilan 2 kun to‘ldiriladi, ularni tozalash uchun 10 kun kerak bo‘ladi. Bunday bo‘linmalar kamida 5 ta bo‘lishi kerak, ularning tagi qiya qilingan bo‘lib, uzun tomonidan mavoziy beton nov ochiladi, suv chiqib ketishi va kirishi uchun nov moslamalari o‘rnatiladi, novlar har 15 – 20 metr masofada joylashtiriladi.

Tindirilgan suv yuqoridan loyqalatmay chiqarilib, havzalarga tushiriladi. Cho‘kmani chiqarish uchun suv havzasi tang tomonidan maxsus quvur bilan obdon bo‘shatiladi, kuzda cho‘kma chiqindi suv bilan suyultirilib, sug‘orish shudgorlariga tashlanadi.

Suv havzasidagi suv chiqidilari qoldig‘ini tozalash uchun suv umumiy hajmdan 10 – 15 % i qoldiriladi. Oksidlovchi suv hovuzlarida suvning qatlami 0,6 metr bo‘lishi yetarlidir. Suv yuzasi bilan atmosfera havosining almashinib turishi suv tezroq oksidlanishiga imkon beradi. Atmosfera havosi harorati 6°S bo‘lganda biologik hovuzdagi suvlarning tozalanishi normal holatda kechadi.

Hozir jahon mamlakatlarida chiqindi suvlarni tozalashda biologik suv hovuzlaridan keng foydalaniladi, sababi suv tarkibida mikroflora va boshqa jonivorlar juda ko‘pdir.

Biologik suv havzalarining o‘ziga yarasha kamchiliklari ham bor. Jumladan, ulardagi tozalash jarayoni iqlim sharoitiga juda bog‘liq bo‘lib, suvni zararlantirish gemint tuxumlaridan qutulish 2 – 3 kundan 2,5 – 3 oygacha cho‘ziladi, tabiiy suvda kechadigan oksidlovchi jarayonlarining samarasini suniy suv oksidlovchi jarayonlari samarasidan ancha kam bo‘ladi. Havzalarga quyiladigan suv toza suv bilan 3 – 5 marta suyiltiriladi.

Albatta, shahar va shaharchalar atrofida maydonlar, suv havzalari yetarli bo‘lsagina tabiiy suv va tozalash inshootlaridan

foydalansa bo‘ladi. Aksincha bunday qulay sharoitlar bo‘lmassa, suniy suv tozalash inshootlaridan foydalanish juda zarur bo‘ladi.

Chiqindi suvlarni zararsizlantirish

Shahar chiqindi suvlarni tozalashning so‘ngi bosqichi ularni zararsizlantirishdir. Ma’lumki, ochiq suv havzalariga hatto biologik usullar bilan tozalang an chiqindi suvlarni ham tashlab bo‘lmaydi, chunki bunday suvlarni suv havzalariga zararsizlantirmay tashlash turli yuqumli kasalliklar tarqatish xafini tug‘diradi.

Ma’lumki qorin tifi, ichburug‘, sariq kasali va boshqa kasalliklar to‘satdan tarqalishiga ichimlik suvlarning ifloslanishi sabab bo‘lmoqda. Ayniqsa, chiqindi suvlar viruslari tozalash inshootlarida hech qachon to‘la –to‘kis ushlab qolinmaydi. Demak, tozalash inshootlarida tozalangan suvlarni zararsizlantirish eng asosiy muammo hisoblanadi.

Zararsizlantiruvchi vositalardan biri amalda keng ishlatiladigan xlor moddasidir. Chiqindi suvlarni tozalashda xlor gaz ohak holida ishlatilishi mumkin. So‘ngi vaqtarda tozalash inshootlarida elektroliz yo‘li bilan faol xlorni ajratib olish masalasi hal etilmoqda. Bu juda foydalidir. Xlor miqdori xlorator uskunalarida aniqlanib, suvga yuboriladi. Chiqindi suvlarni xlorsch samarasini bilish, ya’ni uning ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish gigienafaning muhim vazifalaridan biridir. masalan, chiqindi suv tarkibidagi organik moddalar har qanday sharoitda ham tabiiy suvlar tarkibidagi nisbatan ko‘prokdir, demak, xlor bunday suvlarni tozalashda ko‘proq sarf bo‘ladi.

Chiqindi suvlarni zararsizlantirish xlor ko‘proq ishlatiladi. Ma’lum xujjatlarda keltirilishicha, chiqindi suvlarni zararsizlantirishda xlorning me’yori bir litrga 10mg, mexanik yo‘l bilan tozalanganda 30mg bo‘ladi.

Suv zararsizlantirishi uchun u xlor bilan to‘la aralashtirilishi kerak, xlorning suv bilan to‘qnashushi 30 minut davom etishi kerak. Buning uchun tozalash inshootlarining tarkibida aralashtirgich qurulma, to‘qnashuv havzasi (tik tindirgichga o‘xshab)bo‘lishi kerak.

Oqava suvlarni tozalashda yashil o‘simliklarning ahamiyati

Oqava suvlarni tozalashda gidrobotanik ya’ni yashil o‘simliklardan foydalanish AQSh, Germaniya Federativ

Respublikasi, Yaponiya, Gollandiya mamlakatlarida keng ko'lamda foydalanilib kelinmoqda.

Oqiva suvlarda o'sadigan suv o'simliklari suvda har xil zaharli moddalarni chiqaradi, auksinlar va fitonsidlar gazsimon va suyuq moddalar chiqarib kasallik chaqiruvchi mikroorganizimlar rivojlanishiga salbiy tasir ko'rsatadi.

O'zbekiston respublikasi fanlar akademiyasi mikrobiologiya instituti va SANIIRIilmiy- tekshirish muassasalarining ma'lumotlariga qaraganda va Buxoro parandachilik fabrikasida o'tkazilgan tajribalar natijasida aniqlanganki.Yashil o'simliklar oqava suvda kislorodining biologik singdirishini 77-99 foizga.ximik singdirishini 60-96 foizga,suvda erigan moddalar miqdorini 90-99,8 foizga va azotning miqdorini 45-94 foizga kamaytiriladi.

Viloyatimizda 1991 yilda 206 qoramolchilik fermasida 140 ming bosh qoramol,24 cho'chqachilik fermalarida 16,6ming bosh cho'chqa 160 parandachilik kompleks va fermalarida 3,1 million bosh paranda parvarish qilinmoqda. Shulardan atigi 6tasida inshoati mavjud, xolos.

Chorvachilik komplekslari viloyatimizda suv resurslarini ifloslantiruvchi asosiy manbalardan biridir.Shu sabab suv o'tlari yordamida oqavalarni tozalashni yo'lga qo'yish arzon, ayniqsa bozor iqsidiyotning hozirgi sharoiti muhim ahamiyat kasb etadi. Tozalash inshoati qurish esa katta mablag' talab qiladi.

Oqava suvlarni yuqori suv o'simliklari yordamida tozalash adabiyotda Kabanov, Kokin, Frannsev, Merejko, Madalieva, Magomedov, Morozov, Stalberg, Oleynik va Ruznevlar tomonidan yaxshi yoritilgan. Ammo, viloyatimiz sharoitida bu muhim ish haqida ma'lumotlar kam.

Buxoro parranda chilik fabrikasida 1991 yilda O'rta Osiyo irrigatsiya ilmiy ishlabchiqarish birlashmasi olimlari va qo'mita mutahasislari tomonidan oqava suvlarni tozalash inshootida suv o'simliklari sinab ko'rildi.

Suv o'simliklari oqava suvlarda ko'zpaytirish uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur.

Hajmi 34 ming kubometr oqava suv sig‘adigan 3 ta havuz qurilishi, ular maxsus quvurlar bilan ulanish, suv bir-biridan o‘tib oxiri zovur sistemasiga tushishi kerak.

Oqava suvning sathi 0,3-0,7 metrdan kam bo‘lmasligi shart. Har bir biologik havuzda suv 3-5 kecha-kunduz turishi lozim. Suv o‘tlari aerob sharoitda oqava suvlardagi organik moddalarni parchalaydi. Suv o‘tlari sifatida uzun bargli rogoz, eyxoroniya (suv salati), pistiya, qamish o‘simliklari ishlataladi.

Bu o‘simliklar suvda suzuvchi, subtropik, ya’ni issiq sharoitda o‘sib rivojlanadi. Optimal harorat 20-30 gradus bo‘lishi kerak. Sovuqqa chidamsiz. Qishda saqlash uchun maxsus suvli joylarda usti plyonka bilan bekitilgan holda, har xil suv quduqlarda saqlash lozim, bu o‘tlar tez o‘sadi.

Bir kecha-kunduzda bir kvadrat metrda 380 grammdan 1,5 kilogrammgacha ko‘k massa beradi. Birga o‘simlikdan 80 dan oshiq navdalar paydo bo‘ladi.

Shu sababli oqava suvdagi mineral azot va fosfor birikmalarini singdirib oladi.

Suv o‘tlaridan foydalanish usullari

Birinchi oqava havzasida eyxorniya o‘simligi rivojlantiriladi. Har bir kvadrat metr suvda 6-9 kun mobaynida har bir kecha-kunduzda bir kilogrammdan oshiq ko‘k massa to‘playdi. Yoki bir oyda 3 marta, aprel-oktyabr oylarida esa 21 marotiba yigib olinib bir metr kvadrat joydan 210 kilogrammdan ko‘k o‘t olish mumkin.

Bu havzada kislorodning biologik singdirishi 3-5 kecha-kunduzda 90 foizgacha, ximik singdirishi 25 foiz, ammoniy tuzlari 50 foizga, suvda erigan moddalar 65 foiz, kaliy va natriy tuzlari 29 foizga kamayadi.

Oqava suvlar ikkinchi havzaga o‘tadi. Bu yerda pistiya o‘simligi o‘stiriladi. Bunda suv 3 kun tozalanib so‘ngra 3-nchi qamish va rogoz o‘stiriladigan havzaga o‘tkazilib keyin zovurlarga oqiziladi. Shu yergacha oqava suvlar konsentratsiyaning cheklangan darajasigacha tozalanadi.

Yuqori suv o‘simliklarining har bir kilogrammda 14 dan 40 grammgacha o‘zlashtiriladigan oqsil, 0,12-0,27 ozuqa birligi mavjud.

Madaniy o'simliklarga nisbatan ko'p monosaharidlar (0,5-3 foiz) disaharidlar (1,5- 7,5 foiz) , oksidlar 12.3-19.9 foiz. Protein 4-11 foiz, S va boshqa vitaminlar mavjud.

Ko'k massani chorva ratsioniga qo'shimcha sifatida oqsil-vitamin va mineral qo'shimchalar sifaaatida olish maqsadga muvofiqdir. Bu kvadrat metr suv o'tlari o'stirilgan suvdan 42 kg ozuqa birligi yetishtirish. Yoki 4kg mol go'shti yoki 7 kg go'shti olish mumkin.

Oqava suvlari mexanik usulda tozalashda 30 foiz, fizik-ximik tozalashda 40 foiz va biologik tozalashda 80 foiz zaharli moddalardan tozalanadi. Suv o'tlari bilan oqava suvlarni 6-8 oy mobaynida tozalash va uning tozalashni 90-99 foizga yetkazish imkoniyati yaratiladi.

Suv o'tlari 14 kecha-kunduzda tuzlar darajasini 10-dan 1,4 g/ 1 kamaytiradi. Soprofit mikroorganizmlari miqdorini esa 100 barobar, ichak mikroorganizmlari esa 3 kecha-kunduzdan keyin butunlay qirilib ketadi. O'simlik va hayvonlar uchun zaharli zambruglar butunlay qirilib ketadi.

Oqava suvlarni o'tlar bilan tozalash janubiy Afrikada, shimoliy Amerikada, Osiyo va Avstraliyada keng qo'llanilmoqda.

Bu o'tlar yordamida oqava suvdagi azotning 60 foizi, nitratlarning 99 foizi, nitratning 80 foizi va 40-50 foiz fosfor miqdori kamayadi.

Ilmiy asoslanganki, suv o'tlari maydonlarning har bir kvadrat metridan yoz davomida 5-7 kg oqsilga boy quruq massa olish ta'minlanadi.

Zovur suvlarini yashil o'tlar yordamida tozalash.

Zovur suvlarini yashil o'simliklar yordamida tozalash shu kundagi aktual muammolardan biridir. Chunki , viloyatimizda zovur suvlarining asosiy qismi qo'llarda to'planadi. Uning faqat Zamonbobo qo'lida Amudaryoga 722 million kubometri oqizildi. Viloyat bo'yicha 1990 yilda 1 milliard 888 million kubometr zakhsh suvi bilan chiqarib tashlanadi.

Viloyatda hozir 62 ta tozalash inshoati mavjud. Ular 378 million kubometr oqava suv zovur sistemasiga va ko'llarga

oqiziladi. Lohihadagi oqava suvni tozalash hajmi 207,8 million kubometrni tashkil qiladi. Haqiqatda 85,1million kubometr suv tozalaydi 378 million kubometr oqava suvning faqat 51,4 milltonni (13,3 foizi) konsentratsiyaning cheklangan darajasida tozalaydi, xolos. 326,6 million kubometri 86,9 foizi PDK darajasidan ortiqdir. 14 ta tozalash inshoati yaxshi ishlaymaydi. 7tasi esa umuman ishlaymaydi, faqat 41 tasi qanoatli ishlaydi, xolos. Tozalash inshoatlaridan chiqan 726 million kubometr oqava suvlari sug‘orish maydonlarga oqizilib ekologik muhitni buzishga olib kelmoqda. Ana shunday tozalash inshoati mavjud bo‘lgan Buxoro, Navoiy, Zarafshon, Uchquduq, Gazli shaharlarida suv o‘simliklari o‘stiriladigan havzalar qurilganda edi atrof-muhit ifloslanishiga chek qo‘yilgan bo‘lur edi.

SANIIRI va VNIZO ma’lumotlariga (I.B. Ro‘ziyev) qaraganda zovur suvi bilan 8-15 foiz azot, 5 foiz fosfor, o‘rtacha 14 foiz agroximikatlar ayrim hollarda 30 foizgacha, 5 foiz defoliantlar sug‘orilmaydigan vohalardan esa bu ko‘rsatkich 1 foizni tashkil qiladi, oqib ketadi. Natijada suv resurslaridagi hayvonot dunyosiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Viloyatda 674 kilometr masofada (2431 hektar) rayonlararo zovurlar mavjud. 3320 kilometr masofada 1326 hektar maydonda esa ichki zovur tarmoqlari mavjud.

Agar shu zahkashlarda suv o‘tlari o‘stirilganda edi bu suvlar agroximikatlardan toza bo‘lib, baliqchilikni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo‘lar edi.

SANIIRIning 1989 yildagi(I. B. Ro‘ziyev ,I. YUNUSOV)

ma’lumotlariga qaraganda zovurda suv o‘tlari o‘stirilgan taqdirda GXSG ning o‘simlikdagi konsentratsiyasi 5,5 mg/kg dan 1,5 gacha, 0,2dan 0,07milligramm bir kilogramm quruq massasida kamaydi.

Yuqori tubai suv o‘tlari zovur suvlarida asosiy suvda erigan moddalarni, biogen elementlarni, organik moddalarni , pestitsidlar va agroximikatlarni va boshqa taqsil moddalar tozalanib qolib, toza suv omborlarga va Oralga oqizilishi ta’minlanadi.

Viloyatimiz zovurlari suvida o‘rtacha 0,581 mg/l pestitsidlar, tuzlar miqdori esa bir litrda 2-4,5 gramdan mavjud.

Suv o‘tlari yordamida oqava suvlarni tozalash katta istiqbolga ega bo‘lib, ekologik muhitni yaxshilashga va oziq-ovqat muammolarini hal qilishda asosiy omil ekanligiga ishonchimiz komil.

Dehqonchilik yerlarini sug‘orishda oqava suvlardan foydalanish

Yerlarning sug‘orishning bu usulida chiqindi suvlarning yerlarga qoyiladigan sutkali meyori ancha kam bo‘lib, bir gektarga 5-20m³ suv berilishi mumkin.

Chiqindi suvlarni dehqonchilik yerlarida zararsizlantirish uchun u yerlar oldindan yaxshi tanlanishi kerak, suv tarkibidagi organic moddalardan ekinlar hosildorligini oshirish maqsadida unumli foydalanish kerak. Bu joylarda ekiladigan ekinlar hosili odamlar faqat pishirib istemol qiladigan nematlar bo‘lishi lozim. Dehqonchilik sug‘orish yerlari odatda jamoa va davlat xo‘jaliklari yerlarida uyushtiriladi. Yerlarni chiqindi suvlar bilan sug‘orish uchun doimo sutkasiga bir gektar uchun mo‘ljallangan 5-20m³ suvni taqsimlash kerak. Tajriba shuni ko‘rsatadiki, chiqindi suvlar bilan sug‘oriladigan dehqonchilik yerlari, sabzavot rezavor poliz ekinlari hosil pathogen mikroorganizmlari va gelmint tuxumlari bilan kuchli zararlanadi, ayniqsa, tozalanmagan chiqindi suv bilan sug‘orilganda ifloslanish ancha xavfli darajada bo‘ladi (M. Chuls Ye.Samsonov). demak, qishloq xo‘jalik ekinlari hosilini zararli omillardan holi qilish uchun tuproq ifloslanishini kamaytirish maqsadida chiqindi suvlar oldindan tozalanishi kerak.

Chiqindi suvlarni oddiy tindirgichlarda tindirishning o‘zi bakteriyalarni, gelmit tuxumlarini 50-60% ga kamaytiradi, yotiқ tindirgichlarda suv tezligi sekundiga 1mm bolsa zararli omillar 95% ga kamayar ekan. Suvning tindirilishi uning osimliklarga oigitli ozuқa sifatida ishlatalishini kamaytirmaydi. Chunki suv tindirilganda hammasi bo‘lib 12% azot va 30% gacha fosfor chikishi mumkin.

Albatta dehqonchilik yerlarini chiqindi suvlarini bilan sug‘orilganda suvning tozaligi yuqori darajada bo‘lishini taminlash tuproq va o‘simliklarni kasallik tarqatuvchi omillar va gelmit tuxumlaridan xoli qilish zarur bo‘ladi.

Sug‘orish uchun oqiziladigan chiqindi suvlar meyori kam

bo‘lganidan yer maydonlari atrofida zovurlar kovlashga hojat bo‘lmaydi. Dehqonchiliik yerlarini to‘g‘ri uyushtirish va ulardan tadbirkorlik bilan maqsadida qabul qilingan "Dehqonchilik sug‘orilish yerlarini uyushtirish va ekpluatatiya qilishning sanitariya qoidalari" ga to‘la amal qilish bu borada yaxshi natijalar beradi.

Bu qoidalarga ko‘ra dehqonchilik yerlariga yuqorida keltirilgan meyor bo‘yicha chiqindi suvlar yil davomida to‘xtovsiz qabul qilinishi kerak. Shuning uchun ham chuqindi suvlarni qabul klish yer maydoni yetarlicha keng bo‘lishi lozim.

Olimlar fikricha, chiqindi suvlarni tuproq usuli bilan zararsizlantirish eng arzon va samarali usuldir. Sababi dehqonchilikka mo‘ljallangan yerlarida organik moddalarning oksidlanish, patogen mikroorganizmlarning zararsiz xolatga kelishi tabiiy sharoitda kechadi, bunda tuproqdagagi tirik jonivorlarning tasiri bo‘ladi.

Tuproq tarkibidagi tirik jonivorlarga tuproq biotsenozi deyiladi. Chindan ham tuproq tarkibida juda ko‘p bakteriyalar, zamburug‘lar suv o‘simliklari, chuvalchanglar, umurtqasizlar va boshqa jonivorlar bor. Bu jonivorlarning hammasi o‘zining hayot faoliyatida tuproqda juda murakkab korinishidagi o‘z-o‘zini tozalash jarayoni oqibatida tuproqqa chi‘kindi suvlar bilan tushgan organik moddalardan, mikroorganizmlardan, gelmint tuxumlaridan xoli bo‘ladi.

Umuman dehqonchilik sug‘orish yerlari va filtrlash maydonlaridan foydalanish uchun quyidagi sanitariya qoidalari tavsiya etiladi:

1)biologic yol bilan to‘liq tozalash, dehqonchilikka mo‘ljallangan sug‘orish yerlarida chiqindi suvlarini oxirigacha tozalash;

2) ochiq suv havzalari, shuningdek yer osti suvlaring ifloslanishining oldini olish;

3) aholi va shu sohadagi xizmatchilar chiqindi suvlar yoki ekinlar hosili orqali yuqumli kasalliklar va gelmint tuxumlari bilan zararlanish oldini olishni taminlash.

Shuni aytish kerakki, tuproq vositasida chi‘kindi suvlarni tozalash juda samarali usullardandir, unda mineralizatsiya netrififikatsiya jarayonlari to‘la tabiiy sharoitda kechadi. Bunday tozalash usullari yerlaridan to‘g‘ri foydalanilsa, oqiziladigan, quyiladigan suv

meyorlari saqlansa yerlar to‘g‘ri, o‘z vaqtida haydalib yumshatilsa va uning boshliqlari havo bilan to‘lsagina samarali natijalar beradi. Aks holda yerlar botqoqliklarga aylanadi, yer osti sizot suvlari ifloslanadi, atrof muhit zararlanib aholi sog‘ligiga havf tug‘diradi, kasalliklar tarqatadigan manba bo‘lib qoladi.

Suv havzalarini muhofaza qilish, yer maydonini to‘g‘ri loyialashtirish atrofini ko‘tarish, qiyaliklari yoqotish lozim, yer osti suvlarini yer yuzasidan kamida 1,5-3 metr chuqurlikda bo‘lishini taminlash kerak va ishlatilmaydiga ortiqcha suvni qabul qilish uchun qo‘sishma yerlar bo‘lishi lozim.

Yog‘ingarchilik ko‘p bo‘lgan yerkarni chiqindi suvlar bilan sug‘orishni to‘xtatish, suvni esa qo‘sishma yerlarga yuborish lozim. Zax-suвлar uchun zovurlar kovlash , ularni katta kalektorga ulash zarur. Zax suvlar ochiq suv havzalariga zarar bermasligini taminlash kerak.

Aholi o‘rtasida epidemiologik holatini saqlash uchun sug‘oriladigan yerlar aholi yashaydigan joylardan malum masofada joylashtirilishi kerak. Masalan, kamunal sug‘orish yerkarni aholi isteqomat qiladigan joylardan 500 -ming metr, dehqonchilik sug‘orish yerkarni esa 250-300 metr narida bo‘lishi kerak.

Aholini ekinlar hosili orqali zararlanishi juda xavflidir. Buni oldini olish uchun chiqindi suvlarni chuqur egatlarda oqizish, ekinlarni chiқindi suv bilan sug‘orishni to‘xtatish ekinlar ҳosilini yig‘ishda yuvishda, uni bir joydan ikkinchi joyga olib borishda ehtiyyot choralarini ko‘rish juda muhimdir.

Chiqindi suvlar bilan sug‘oriladigan maydonlarda pishirilmay istemol qilinadigan pomidor,bodring,rediska qulupnay kabi sabzavot va ziravorlar yetishtirilmaydi.

Oqava suvlarni qayta tozalash.

Hozirgi vaqtida chuchuk suv tanqisligi hamda mintaqalarda suzilayotgan bir davrda tozalangan chiqindi suvlarni ochiq suv havzalariga tashlamay biron maqsad uchun qayta foydalanish shu kunning dolzarb masalalaridir. Xuddi shu usul bilan aholi uchun zarur bo‘lgan ajoyib suv havzalarini saqlab qolish mumkin. Demak tozalangan suvlarning tarkibidagi organik moddalarni kamaytirish

maqsadida qayta tozalash inshootlaridan o'tkazish fikrlari bor. Uning uchun vodoprovod tizimida ishlatiladigan usullardan foydalanish, ya'ni bir qavatli qumli filtrdan yoki ikki qavatli vodoprovod (qumanrotstid)filtrlardan o'tkazib oxirigacha xlorlab suvni oldingi holatiga qaytarish ko'zda tutiladi.

Chiqindi tozalangan suvni yana qayta tozalash juda qimmatga tushadi. Bordiyu, tozalangan shahar chiqindi suvlar texnologik jarayonda ishlatilmochi bo'lganda ham ko'pgina gigiyenik masalalarni yechish kerak. Jumladan shunday suvlarni ochiq texnologiyada ishlatish juda xavflidir. Uning tarkibidagi virusni, bakteriyalarni hisobga olganda bu suv odam sog'ligiga katta zarar. Masalan, suv suv tarkibidagi fenollar, yuza aktiv moddalar bo'yoqlar va boshqalar hatto kam mikdorda ham suv sifatini ya'ni suvning hidini, rangini mazasini o'zgartirib yuboradi.

Og'ir metal tuzlari, politiklik aromatik uglevodorodlar, mitroza birikmalar shahar chiqindi suvlarning doimiy tarkibiy qismi bo'lib, ular kantserogenli, mutagenli hususiyatlarga egadir. Qizig'i shundaki, tozalangan suvlarni qayta tozalash vaqtida, zararsizlantirish jarayonida shunday kimyoviy moddalar paydo bo'ladiki, ular suvning sifatini mutlaqo o'zgartirib yuboradi. Jumladan, suvni xlorlashda gaolidometanlar hosil bo'ladi, ularning ko'plari blastomogen ta'sir ko'rsatuvchi kimyoviy moddalardir.

Demak shahar chiqindi suvlarini yana qayta tozalashda uning mikroqli kimyoviy moddalar bilan ifloslanganligini ko'zda tutish kerak. Ayniqsa ochiq texnologik jarayonda ishlatilishi kishi sog'ligiga xavf tug'dirishi mumkin.

Tajriba yo'li bilan suvni qayta ishlab uning sifatini oshirish mumkin. Masalan, xlorni ko'proq ishlatib, suvdagi mikroblardan qutulish mumkin. Lekin bunday suvlarning bakteriyasi bo'lmasa-da, zararliligi saqlanadi.

Gigiena mutaxasislari tomonidan qayta tozalangan suvlar uchun ularning zarar bermaydigan sifat ko'rsatgichlari ishlab chiqilgan. Shu ko'rsatgichlar qayta tozalangan chiqindi suvlarida saqlana olsa, bunday suvlarni texnologik jarayonlarda ishlatish mumkin. Jadvalda keltirilgan chiqindi suvlarni sifatiga qayta ishlash oqibatida yerishgan

bo'lsa, bunday suvlar ochiq texnalogiya jarayonlarda korxonalarda qayta ishlatilishi mumkin.

Chiqindi suvlarni tozalashda foydalaniladigan inshootlar.

Odatda chiqindi suvlarni tozalash uchun oldindan tozalash usullarini va inshootlarini joylarning iqlim sharoitiga, sanitariya holatiga texnik tomonlari va iqtisodiy ahvolini hisobga olib tanlash zarur. Doimo shunday savollar ko'ngdalang bo'lib turadi: mexanik tozalashni o'zi kifoya qilmasmikan yoki to'liq biologik tozalash usullardan foydalanish kerakmikan? Umuman suvni zararsiz holatga keltirish kerakmi yoki yo'qmi va hokazolar.

Lekin shuni unutmaslik kerakki har bir masala sanitariya epidemiologiya muassasalari ishtirokida hal qilish kerak, chunki chiqindi suvlarni tozalash sanitariya talablarini bajarishga qolaversa epidemiologik holatni oldini olishga va aholi sog'ligini saqlashga qaratilgan. Shuning uchun shu sohada chiqindi suvlarni tozalashni soddalashtirish, shu maqsadlar uchun ajratilgan mablag'larni iqtisod qilishga g'ech kimga huquq berilmagan. Chunki gap inson sog'ligi haqida ketyapti.

Agar tozalangan suv ochiq suv havzasiga tashlangandan so'ng ko'proq suyuultirilsa, daryo oqimi davomida aholi turur joylar bo'lmasa, havzaga tushiriladigan suvni tozalanish darajasini kamaytirish mumkin. Chiqindi suvlarni tozalashni tindirish jarayonlarini cho'kmani achitishni bir-birlaridan ajratilgan holatda olib borish kerak. Tindirgichlarni talablariga qarab mo'ljallaniladi. Gorizontal tindirgich ishlatishga qulay lekin qurish ancha murakkab.

O'rtacha va kichik inshootlar uchun eng yaxshisi ikki yarusli tindirgichlardan foydalanish ancha ma'quldir. Ularni ishlatish bir tomondan qiyin emas ikkinchi tomondan cho'mani achishi doimiy va qulay. Sanitariya holatini va epidemiologiya xavfini nazarda tutib oddiy tindirgichlarni qurishga yo'l qo'ymaslik kerak. Sababi shundaki oddiy tindirgichlardan olinadigan cho'kmalar achimay sasiydi, chiriydi atrofqa zararli gazlar chiqaradi o'ziga pashshalarni jalg kiladi, infeksiyani tarqalishiga sababchi bo'ladi.

Biologik tozalash usullariga kelsak, bular ichida sanitariya nuqtai nazardan yaroqlisi dehqonchilik sug'orish yerlaridir.

Demak shahar atrofidagi tekis, yaxshi filtirlaydigan bo'sh yarlarni shu maqsadda foydalansa bo'ladi. Albatta eng samarali va tez tozalash qobiliyatiga ega bo'lgan inshoot bu aerotenkdir. Aerotenq qurilishi murakkab, uning ishlatish yuqori malakali injiner-texniklar bo'lishi talab qiladi. Ular o'rta va katta shaharning chiqindi tozalash inshootlarida quriladi va ishlatiladi.

O'rtacha va kichik stansiyalarda biofltrlarni boshqa usullar bilan almashtirib bo'lmaydi. Biofltrlar eng samarali tozalash inshootlariga kiradi. Qanday tozalash inshootlari qurilmasin chiqindi suvlarning o'z oqimi bilan stansiyalarga tushishi katta ahamiyatga ega. Ayniqsa aerotenklar va tuproqli maydonlar yer yuzasiga moslab o'rnatalishi juda qulaydir.

Masalan, bir bosqichli biofltrlarga suv o'zi oqib kelishi uchun yer relyefi 2,5-3 metr pasroqda, ikkinchi bosqichli biofltrlar uchun 5-7 metr pastroq bo'lishini talab etadi S.N. Cherkinskiy tozalash inshootlarining samarali ishlashini bir-biriga solishtirib quyidagi jadvalni keltiradi.

Chiqindi suvlarni tozalashda eng muhim masala gelmin tuxumlaridan ozod qilishdir. Buning uchun tindirgichlardan foydalilanildi. Bu sohada olib borilgan tajriba shuni ko'rsatadiki tindirgichlardagi suv tezligi sekundiga 1mm bo'dsa, suv gelmint tuxumlaridan

94,8-98,4% tozalaniladi. Sug'orish maydonlarida esa suvning gelmintlardan tozalanishi 83,7% ga teng, bunda suvning harakat tezligi sekundiga 5mm ga teng (L.Antonova, I.A.Konardov).

Gelmintlar tuxumini qirish uchun juda katta xlor kerak bo'ladi. Jumladan, 1 l suv uchun 200 mg xlor zarur. Bunday miqdorda suvni quyish, uning sifatini buzib yuboradi, iqtisodiy tomondan juda qimmatga tushadi.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Korxonalarda texnik suvlar qanday maqsadlar uchun ishlatiladi?

2. Biologik suv havzalariga qanday havzalar kiradi?

- 3. Chiqindi suvlarni qanday qilib zararsizlantirish mumkin?**
- 4. Dehqonchilik yerlarini sug‘orishda oqava suvlardan foydalanish mumkinmi?**
- 5. Zovur suvlarini yashil o‘tlar yordamida tozalash mumkinmi?**
- 6. Oqava suvlarni qayta tozalash qanday jarayonda amalga oshiriladi?**
- 7. Chiqindi suvlarni tozalashda qanday inshootlardan foydalaniladi?**

III BOB. YUKSAK SUV O'SIMLIKARINI OQAVA SUVLARDA KO'PAYTIRISHNI O'RGANILGANLIGI

Oqava suvlarni biologik hovuzlarda tozalaganda, bu uslubning boshqa uslublarga nisbatan afzalligi haqida chet el va respublikamiz olimlarining ilmiy-tadqiqot ishlarida chop qilingan (Vinberg, Sivko. 1960, 1965; Hasanov va boshk. 1963; Konin, 1961; Fransev, 1969; Muzaffarov, Taubaev, 1972; Muzaffarov va boshq., 1972; Taubaev, Bo'riev, 1980; Yunusov, 1983; Tojiev, 1984, Xaydarova, 1991; Abdukadrov, 1990; Shoyakubov, Qutliev, 1993; Uhlmann, 1959; Nills, 1961; Parker, 1963; Seidel, 1964 va boshk.). Biologik hovuzlarda yashaydigan gidrobiontlar yordamida tuban va yuksak o'simliklar, mikroorganizmlar va zooplanktonlar, o'zlarining hayot faoliyatida atrofga maxsus kemyoviy moddalar (antibiotiklar) chiqarishi natijasida, oqava suvidagi kasallik tarqatuvchi patogen bakteriyalarini yo'q qiladi. (Ostapenya 1961; Gaslina, 1961; Telichenko 1966).

Biologik hovuzlarda oqava suvlarni tozalashda mikroorganizmlardan tashqari tuban va yuksak suv o'tlarining roli katta. Bular fotosintetik faoliyati natijasida suvni kislorod bilan boyitishdan tashqari suvdagi organik moddalarning parchalanishida ishtirok qilishadi va ulardan hosil bo'lgan mineral moddalarni shimb olish yo'li bilan o'zlashtiradi va suvning tozalanish jarayonlarini tezlashtiradi. (Vinberg va boshk., 1965; Konin, 1963; Morozov va boshk., 1969; Rodziller, Zotev, 1975; Galkina, 1972; Seidel, 1967 va boshkalar).

Ifloslangan suv havzalarida doimiy ravishda yuksak suv o'simliklaridan qamish, qo'g'a va boshqalar o'sib, rivojlanadi.

Yuksak suv o'simliklarining oqava suvlarni tozalashdagi roli ko'pgina adabiyotlarda izohlangan (Muzaffarov, Taubaev, 1971, 1972; Morozov va boshqalar, 1969; Konin, 1959, 1963; Morozov, Petrov, 1972; Madalieva G., 1975; Shoyoqubov, 1986, 1987, 1988, 1989, 1992, 1993, 1993, Xaydarova, 1991 va boshq.).

A.Muzaffarov va boshqalar (1983) fikricha, sun'iy sharoitda ekib o'stirilgan yuksak o'simliklar, okova suv tarkibidagi organik va mineral moddalarni tezlik bilan cho'ktirishi va o'zlashtirishi sababli,

qiska muddat ichida oqava suv tozalanadi va qimmatbaho o'simliklar biomassasi hosil bo'ladi. Masalan, shahar maishiy-xizmat oqava suviga ekilgan pistiyaning massasi bir kun ichida 100-150 g/m² ni tashkil qilgan.

Yuksak suv o'simliklari sanoat va kommunal-xo'jalik oqava suvlarini oliv darajada tozalashi bir qator ilmiy ishlarda ko'rsatilgan (Konin, 1961, 1963; Fransev, 1961, Siedel, 1963, 1965 va boshk.).

Suv o'simliklari suvdagi azotli birikmalarni o'zlashtirishi tufayli suvni gullahidan va ikkinchi marotaba ifloslanishidan saqlaydi. Ayrim olimlarning ma'lumoticha, shoxbarg suv havzalarini ko'k-yashil suvo'tlarning gullahidan saqlaydi (Kogan, Chinnova, 1962).

N.M. Kabanovning (1962) ko'rsatishicha, yuksak suv o'simliklari oqava suvlarda oksidlanishning aerob fazasini tezlatadi va suvni erigan kislorod bilan boyitadi.

Suv va botqoqda o'sadigan o'simliklarning oqava suvlarni tozalash qobiliyati ayrim olimlarning ishlarida keng berilgan (Rodziller, Zotov, 1973; Siedel, 1963, 1964, 1967, 1974). Siedel (1964) suv-botqoqo'simliklarining 10 xilini tajriba qilib ko'rgan va ulardan kimyoviy elementlarni o'ziga ko'p qabul qiladigan ko'l qamishi (*Scirpus lacustris L.*) ekanligini isbotlagan.

N.V Galkina (1972) ayrim yuksak suv o'simliklari qamish (*Scirpus lacustris L.*), kug'a(*Typha uhgustifolia*), sitsaniya (*Zizania lutifolia*), kichik ryaska (*Lemma minoz*) sanoat oqava suvidagi ko'rgoshin, misva sink moddalarini so'rish qobiliyatiga ega ekanligini ko'rsatgan. Suv havzalari tez-tez har xil zaxarli moddalar, ya'ni fenol, neft mahsulotlari, pestitsidlar, sianidlar va boshqalar bilan ifloslanib turadi. Ayrim mualliflarning ko'rsatishicha, yuqorida ko'rsatilgan kimyoviy moddalar bir qator suv botqoqo'simliklari tomonidan parchalanar ekan (Petrov, 1969; Seidel, 1963).

Yuksak suv o'simliklari bo'lgan suv havzalaridagi neft va neft mahsulotlarining parchalanishi 2-3 barobar tezlashadi. I.D.Rodziller va

V.I.Zotovning (1973) yozishicha, kengbargli ko'p o'simliklar, tarkibida neft mahsulotlari bo'lgan oqava suvida o'sib, rivojlanib, ularni parchalash qobiliyatiga ega.

Bu o'simliklar oqava suvdagi neftni parchalovchi bakteriyalarning faolligini oshirgan.

Suv-botqoqo'simliklari radioaktiv izotoplarni so'rish qobiliyatiga ham ega. Ayrim izlanuvchilarning (Agre va boshq., 1963; Iskra, 1970) fikricha, yuksak suv o'simliklari o'zlariga seziy-137 va stronsiy-90 yig'adi. Kichik ryaska (Lemma minoz), urut krylataya (Myriophyllum spilatum), urut mutovchataya (Myriophyllum verticillatum) kobalt-60 ni, elodeya va urut toriy hamda radiy izotoplari yig'ish qobiliyatiga ega.

Bir qator olimlarning yozishicha, yuksak suv o'simliklari oqava suvlarning hisobidagi mineralelementlardan azot, fosfor, kalsiy va boshqa biogen moddalarni o'zlarining o'sib rivojlanishi uchun o'zlashtiradi (Fransev, 1961; Taubaev, Bo'riev, 1980; Madalieva, 1975; Merejko, 1973), T.Taubaev va S. Bo'rievlarning (1980) yozishlaricha, yuksak suv-botqoqo'simliklari mikroelementlarni yig'ish qobiliyatiga ham ega. Shuning uchun ularning tarkibida marganes, mis va sink borligi aniqlangan.

Qo'g'aning (*Typha uhgustifolia*) biomassasida misning miqdori - 12,2, qamishda - 6,4, tryasnikda esa - 5,7 mg/kg bo'lган. Ko'pchilik yuksak suv o'simliklari suvdagi bo'lган pestitsidlarni o'zlariga yig'ish qobiliyatiga ega. A.I.Merejkoning (1977) yozishicha, suv o'simliklari zaharli moddalarni ikki xil yo'l bilan ya'ni, passivlik hamda faollik yo'li bilan, o'zlariga qabul qilishi aniqlangan. O'simlikka passivlik yo'li bilan o'tgan zaharli moddalar uning ma'lum bir organiga (xo'jayrasiga) yig'iladi. Faol holatda qabul qilingan moddalar metabolizmda ishtirok qilib, ba'zan tashqi muhitga chiqishi ham mumkin.

Zaharli moddalarning gidrobiontlarga yig'ilish koeffitsienti to'rt guruhga bo'lingan. Birinchi guruhga kiradigan moddalar gidrobiontlarda 10 kungacha saqlanadi. Ikkinci guruhga kiruvchi moddalar 11 kundan 30 kungacha saqlanadi. Uchinchi guruh moddalari esa 30-45 kungacha saqlanishi mumkin. To'rtinchi guruh 45 kundan oshiq. Faollik bilan so'rildigan zaharli moddalar, o'simliklardan muhitga qaytib chiqadi (Vrachinskiy, 1977).

Xloroorganik pestitsidlardan DDT va GXSG ni har xil

konsentratsiyasining ta'siri o'rganilgan (Merejko va boshk., 1977). DDT miqdori 2000 mkg/l bo'lganda, qamishning bargiga nisbatan ildizida 1,6 baravar ortiq bo'lган, GXSG ning miqdori esa qamishning bargidan ko'ra ildizida 4-8 baravar ortiqcha bo'lган. Pestitsidlar suv o'simliklarining fotosintetik faolligigaham ta'sir qiladi. Ayrim mualliflarning fikricha, oqava suvlar yuksak suv o'simliklari va suvo'tlari uchun ozuqa hisoblanadi (Karimov, 1966; Kabirova, 1966; Muzaffarov, Taubaev, 1971, 1972; Dogadina, 1972; Morozov, Petrov, 1972; Fransev 1972 va boshq.).

T.T.Taubaevning (1970) tadqiqotlariga ko'ra ryaska, jeruxa va suv o'simliklari Toshkent shahrining communal xo'jalik va maishiy-xizmat oqava suvida yaxshi o'sib, rivojlangan. Uning fikricha, ryaska bir sutka ichida 1 m² suv yuzasida 130-150 g biomassa beradi. Trostnik, rogozlar, rdestlar va ryaskalar communal xo'jalik maishiy va xizmat oqava suvlariga ekilganda, suv barcha aralashmalardan tozalanadi. KBS₅ 90-95% ga kamaygan.

Muzaffarov va boshk.,(1972) Farg'ona-Marg'ilon sanoat markazi oqava suvini mikroskopik suvo'tlar va yuksak suv o'simliklari yordamida tozalash uchun maxsus biologik hovuzlar qurilgan. Biologik hovuzlarga suv o'tlaridan xlorella, ssenedesmus va evglena, yuksak suv o'simliklaridan trostnik va rogoz ekilganda, uning tozalanishi ancha tezlashgan (Vasigov va boshq., 1976).

Farg'ona-Marg'ilon sanoat markazidan chiqadigan oqava suvlarini yuksak suvo'simliklari bilan tozalashsohasida olib borilgan tajribalarnatijasida ancha qiziqarli va yaxshi muvaffaqiyatlarga erishilgan.Maxsus akvariumlarda vakristallizatorlarda olib borilgantajribalar natijasida KBS₅tozalash sohasida olib borilgan tajribalar natijasida ancha qiziqarli va yaxshi muvaffaqiyatlarga erishilgan. Maxsus akvariumlarda olib borilgan tajribalar natijasida KBS₅137,5 dan 44,6 mg O₂/l gacha kamaygan. Suvning pastki kismida o'sadigan o'simliklar bilan o'tkazilgan tajribalar natijasida, suvda 10 kun ichida kislorod miqdori 26,4 mg/l gacha yetgan. KBS₅va oksidlanish darjasasi 72,2 dan 9,78 va 79,5 dan 40,4 mg /l gacha kamaygan (Yunusov, 1976).

Suv o'tlar va yuksak suv o'simliklarini oqava suviga ekkanda

fakat u organik-mineral va bakteriologik ifloslanishdan tozalanib qolmasdan, qimmatbaxo ozukabop biomassa olinadi. Gidrobiontlarni oqava suvlarni tozalash uchun ularni biologik hovuzlarga va maxsus qurilmalarga ekish mumkin (Gyunter va boshk., 1977; Kraves, Antonova, 1977; Yuzvenko, 1977). Bir qator izlanishlar natijasida (Gurevich, 1949) rogolistik(*Cerazophyllum Qemersum*), air (*Acorus calamus*), trosnik (*Phraqmites communis*) va boshqa suv o'simliklari bakteriotsidlik xususiyatlari ega ekanligianiqlangan. Wilson (1953) fikricha, oqava suvlari biologik havzalardan o'tishi natijasida o'simliklarning fotosintetik qobiliyati natijasida ular faqat kimyoviy moddalardan tozalanmasdan, balki suvo'tlardan chiqadigan fitonsid moddalar yordamida, infekzion mikroorganizmlardan ham tozalanadi (Gurevich, 1973; Gurevich, Yastrebova, 1977; Kogan, Kraynyukova, 1977).

Markaziy Osiyo, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi iqlimi sharoitida bir yil davomida 9-10 oy ichida oqava suvlarni biologik usul bilan tozalashda suvo'tlari va yuksak suv o'simliklari ekib, o'stirish bilan ularning tozalanish darajasini 90-99 foizga olib chiqish mumkin. Laboratoriya sharoitida suvo'tlari va yuksak suv o'simliklari tur va shtammlarning oqavasuvlarini tozalashdagi darajasi o'rganilgan. Buning uchun bir necha korxonalardan chiqadigan oqava suvlarda chorvachilik, parrandachilik fabrikalari, cho'chkachilik komplekslari, bordoqiga boqiladigan mollar xonasida va boshqa mineral o'g'itlar ishlab chiqariladigan korxonalarda, shahar kommunal va maishiy xizmat xo'jaliklarida, oltin ishlab chiqarish sanoat korxonasida, kanopni qayta ishlar korxonalaridan chiqadigan oqava suvlarda hamda yog'-moy va pilla suvlarida suv o'simliklari o'stirilgan. (Muzaffarov va boshkalar, 1972; Galkina, 1972; Madalieva, 1975; Taubaev, Buriev, 1980; Muzaffarov va boshkalar, 1983; Xaydarova, 1991; Abdukodirov, 1991; Tojiev, 1984; Kim, 1988).

Aniqlanishicha, ko'pchilik suvo'tlarning va yuksak suv o'simliklarining Farg'ona-Marg'ilon sanoat markazidan chiqadigan oqava suvlarni tozalashdauning ahamiyati kattadir. Bulardan tashqari, tarkibida neft mahsulotlari (0,5-312 mg/l), fenol (0,1-50,0 mg/l) xamda

Toshkent, Ohangaron, Olmaliq shaharlaridan chiqadigan kommunal va maishiy xo‘jalik, parrandachilik vachorvachilik korxonalarini oqava suvlarini tozalashda bu o‘simliklarning hamroli beqiyosdir. Bunday oqava suvlardan suvo‘tlardan xlorella, ssenedesmus, ankestradesmusva yuksak suv o‘simliklaridan ryaskahamdaspirodellalarini o‘stirish uchun ozuqa sifatida foydalanish mumkin.

A. I. Muzaffarov va T. V. Vasigovlarning (1977) yozishicha, xlorellava ssenedesmusni maxsus qurilmalarda, kommunal xo‘jalik va maishiyxizmatlar oqava suvlarida o‘stirilganida ularning biomassasi 5-8 kunda 0,65-1,1, Farg‘ona-Marg‘ilon sanoat markazi aralash suvida 0,35-0,60, "O‘zbekiston" parrandachilik fabrikasi va Sirg‘ali cho‘chqachilik kompleksida

0,7-1,0 g/l quruq massa hosil qilgan. Bu suvo‘tlarining bir sutkadagi o‘rtacha

hosildorligi 1 metr kvadrat suv yuzasida 16,7-21,6 gquruq massaga yetgan. Ryaska va spirodellalarini parandachilik oqava suvlariga ekkanda ularning hosildorligi 1 m² suv yuzasida 1 sutkada 100-110 va 125-176 g ho‘l massa cho‘chqachilik kompleksida esa 98-140 va 153 g ni tashkil qilgan. Yashil cuvo‘tlari ham oqava suvlarni tozalashda katta ahamiyatga ega.

R.Sh.Shoyoqubov va boshqalarning (1980) ko‘rsatishicha, "O‘zbekiston" parrandachilik fabrikasidan chiqadigan oqava suvlarning tarkibi mikrobiologik jihatdan kuchli ifloslangan, umumiy kollektordagi mikroorganizmlarning soni 135 mln. xo‘jayra/ml da, shundan saprofitlar} 825 ming xo‘jayra/ml va ichak tayoqchalari bakteriyalari esa 0,2 ming xo‘jayra/ml da. Ushbu suvga xlorokokk suvo‘tlaridan Ankistrodesmus angustu Bern ekilganida oqava suvning tarkibi organik va mineral moddalardan tezlik bilan tozalangan. Tajribaning oxirida suvda erigan kislorodning miqdori 14,1 mg/l gacha ko‘paygan. KBS₅ va oksidlanish darajasi 69,1 va 48,8 mg O₂/l gacha kamaygan.

Ayrim suvo‘tlar va yuksak suv o‘simliklarining "O‘zbekiston parrandachilik fabrikasi, "Sirk‘ali" cho‘chqachilik kompleksi hamda Andijon shahar communal-xo‘jalik va ishlab chiqish sanoat korxonalarida chiqadigan oqava suvlarida o‘sishi, rivojlanishi, ularni

har xil ifloslanishdan tozalanishi A.M.Muzaffarov va T.V.Vasigovlar (1987) tomonidan o‘rganilgan. Tajribada "O‘zbekiston" parrandachilik fabrikasioqava suviga Ankistrodesmus angustus Bern., Chlorella vulgaris Beisei Scenedesmus obliquus (Turp.) Kuett ekilgan. Natijalarning ko‘rsatishchaoqava suvlaridan yuqorida ko‘rsatilgan suvo‘tlari o‘stirishda ozuqa sifatida foydalanish mumkin ekan. O‘stirilgan suvo‘tlarining hosildorligi 1 m² suv yuzasida 13,4-17,2 gquruq moddani tashkil qilgan. Suvo‘tlaridan tashqari "O‘zbekiston" parrandachilik fabrikasidan chiquvchi oqava suviga yuksak o‘simliklaridan ryaska (Lemma minoz) va spirodella (Spirodella polychra) ekilgach, ularning oqava suvini tozalashi hamda hosilning ko‘payishi o‘rganilgan. Chorvachilik kompleksidan va oltin ishlab chiqaradigan fabrikadan chiqadigan oqava suvlarini tozalash biotexnologiyasi ham ishlab chiqilgan (Bo‘riev, 1993). Muallifning ko‘rsatishicha, mikroskopik suvo‘tlar yordamida oqava suvining tarkibidagi organik,mineral moddalar, kasallik tarqatuvchi mikroorganizmlar va zaharli moddalardan intensiv holatda tozalanar ekan. Bu tozalanish darajasi 90-95 foizni tashkil qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasidagi Mikrobiologiya instituta (R.Sh.Shoyoqubov va hamkasblari) tomonidan cho‘chqachilik, parrandachilik komplekslaridan hamda kanopni qayta ishlaydigan korxonalardan chiqadigan oqava - suvlarni yuksak suv o‘simliklar vakili pistiya (*Pistia stratiotes* L.) yordamida tozalash biotexnologiyasi ishlab chiqilgan va ishlab chiqarishga keng joriy qilingan.

Pistiya, suv karami, kuchalagullilar oilasiga (*Pistia stratiotes* L.) mansub ko‘p yillik chuchuk suv o‘simligi bo‘lib, suvning ustida suzib yuradi va suv o‘tloqzorni hosil qiladi. Pistiya qadimgi o‘simliklardan hisoblanadi. Uning qoldiklari Fransiyaning janubida va Shimoliy Amerikada topilgan (Engler, 1924). Hozirgi vaqtida pistiyaning areali Osiyo, Afrika, Avstraliya va Yevropani o‘z ichiga oladi (Vulf, Maleeva , 1969; Grudzinskaya, 1982). Botanika bog‘larida pistiya manzarali (Paramonova, 1961; Minoxina, 1984) va akvarium o‘simligi sifatida ekiladi (Jdanov, 1973; sirling, 1991). Bundan tashqari pistiyaning biomassasi cho‘chqalarga ozuqa sifatida

ishlatiladi (Vulf, Maleeva, 1969). Pistiyani o'stirish uchun ozuqa muhiti sifatida turli xil hayvonlar (qo'y, qoramol, cho'chqa, ot) go'ngidan kanopni qayta ishlash zavodlari, mineral o'g'it ishlab chiqarish korxonalari, biokimyo zavodlari, pillakashlik fabrikalari, go'sht kombinatlari, shahar maishiy-xizmat korxonalaridan chiqadigan oqava suvlardan, mineral organik ozuqa muhiti sharoitida foydalanish mumkin (Shoyoqubov va boshq., 1993). Olimlarning fikricha suvda qalkib o'sadigan o'simliklarning o'sishi, nafakat ozuqa muhitlari xususiyati tarkibiga va o'simlik turiga, balki ekiladigan ko'chatning birlamchi zichligiga ham bog'liqdir.

Pistiyaning ekiladigan birlamchi ko'chat zichligi ozuqa muhitlar vauoqava suvlarning konsentratsiyasiga qarab 1 m^2 suv yuzasiga 1-3 kg, ayrim holda 5 kg/m^2 ho'l biomassani tashkil etadi.

Pistiya cho'chqachilik komplekslari va parrandachilik fabrikalari oqava suvlarida yaxshi o'sadi. Uning hosili bir kecha-kunduzda 1 m^2 suv yuzasida 1400 grammgacha ho'l biomassani hosil qiladi (Shoyoqubov va bosh., 1993).Pistiya o'simligining parrandachilik fabrikalari cho'chqachilikkomplekslari va kanopni qayta ishlash korxonalarining oqava suvlarni tozalashdagi roli bir qator izlanuvchilar orqali o'r ganilgan (Shoyoqubov, 1992, 1993; Xaydarova va boshk, 1991; Xasanov, 1994, 1995).O'tkazilgan tajribalar natijasida parrandachilik fabrikasining oqava suviga, uni suyultirmasdan (100%) pistiya ekilganda 6-7 kundan keyin uning hosildorligi 1 m^2 suv yuzasida 935 g, o'sishi esa 318,3 g ni (191,3 foiz) tashkil qilgan, Oqava suvni 1:1 nisbatda suv bilan suyultirilganda pistiyaning o'sish dinamikasi bir kecha-kunduzda 255,8 g yoki 259,5 foizni tashkil qilgan. Oqava suvda pistiyaning o'sib rivojlanishi bilan bir qatorda suvning ekologik holati fizik va kimyoviy tarkibida o'zgarish bo'lganligi ham kuzatilgan. Suvda erigan kislород miqdori noldan 13,6 mg/l ga yetgan. Kislород miqdorining biokimyoviy jarayonlar uchun sarflanishi (KBS₅) 72,3 dan 21,3 mg O₂/l gacha kamaygan.Oqava suvining tarkibidagi ammiak, nitrit va nitratlar pistiya tomonidan o'sish va rivojlanish uchun o'zlashtiradi. Yuqorida ko'rsatilgan olimlarning pistiya

o'simligini cho'chqachilik kompleksi oqava suviga ekkandagi tajribalarning natijasi shuni ko'rsatdiki, uning o'sishdinamikasi bir kunda 1metr kvadrat suv yuzasida 441,6 yoki 232, 5 foizni tashkil etgan. R.Sh.Shoyoqubov va G. Jumaniyozovalarning tadqiqotlari bo'yicha pistiya o'simligini kanopni qayta ishlash korxonasidan chiqadigan oqavasuviga ekilganda, uning 3 kundan keyin 1metr kvadrat suv yuzasida 360 g ni tashkil qildi. Suvda erigan kislorodning miqdori noldan 18,5 mg/l gacha oshgan. Kislorodning biokimyoviy jarayonlar uchun sarflanishi 249,3 dan 13,5 mg O₂/l gacha, moddalarning oksidlanishi esa 475,4 dan 42,1 mg O₂/l gacha kamaygan.

Pistiya o'simligining to'qimachilik korxonalari oqava suvlarida o'sishi, rivojlanishi, ko'payishi va suvlarni organo-mineral moddalardan tozalanishi Yo.Q. Hayitov va boshqalar tomonidan o'rganilgan (1999).

3.1. Pistiyaning bioekologik o'sish xususiyati

O'zbekiston sharoitida pistiya o'simligini o'stirish usullari Sh.Shoyoqubovning (1993) ishlarida keltirilgan.

Pistiya yoki suv karami kuchalagullilar oilasiga mansub o'simlikdir. U ko'p yillik bo'lib chuchuk suvlar, qisman minerallashgan va organik moddalarga boy suvlar yuzasida qalkib o'sadi. Pistiya yer sharining ko'pgina tropik va subtropik mintakalardagi suv havzalarida (daryo qirg'oqlarida, ko'llarda va suv omborlarida) katta-katta suv o'tloqzorlarni hosil qiladi.

Bizda pistiya manzarali o'simlik sifatida botanika bog'larida va havaskor baliqchilar tomonidan esa akvariumlarda ko'paytiriladi.

O'zbekistonda pistiya laboratoriya sharoitida qishda issiqxonalarda shisha plastik idishlarda va akvariumlarda, beton hovuzlarda, yozda esa temir-beton lotoklarda va sementlangan hovuzlarda ochiq havoda o'stirish mumkin. Pistiya o'stirish uchun ozuqa muhitida turli xil hayvonlar (qo'y, qoramol, cho'chqa, ot) go'ngidan, parranda go'ngidan, chorvachilik komplekslaridan (parrandachilik fabrikalari, cho'chqachilik komplekslari, qoramollarni bo'rdoqiga boqish xo'jaliklari, kanopni qayta ishlash zavodlari,

mineral o‘g‘it ishlab chiqarish korxonalari, biokimyo zavodlari, pillakashlik fabrikalari, go‘sht kombinatlari, shahar maishiy-xizmat korxonalari) chikadigan okova suvlar va kanop mineral ozuqa muhitidan foydalanish mumkin.

Ma’lumki, suvda qalkib o‘sadigan o‘simliklarning o‘sishi nafakat ozuqa muhitlari xususiyati, tarkibiga va o‘simlik turiga, balki ekiladigan ko‘chatning birlamchi zichligiga ham bog‘liqdir.

Masalan, pistiyaning ekiladigan birlamchi ko‘chat zichligi ozuqa muhitlar va oqava suvlarining konsentratsiyasiga qarab, ko‘pincha 1 kv. m suv yuzasiga (bunda suvning chuqurligi 0,5-1 m bo‘lishi maqsadga muvofiqdir) 1- 3, ayrim hollarda 5 kg ho‘l biomassani tashkil qiladi. Pistiya cho‘chqachilik komplekslari va parrandachilik fabrikalari oqava suvlarida (oqava suvi 50 foiz vodoprovod yoki ariq suvi bilan aralashtirilganda) yaxshi o‘sadi. Bunda bir necha kunda 1 kv. m suv yuzasidan 1400 g gacha ho‘l biomassha olish mumkin.

Ozuqa muhitlaridan eng yaxshisi 1 l suvga 5 g dan qo‘y go‘ngi solingan ozuqa muhitidir. Bunday ozuqa muhitida pistiya (birlamchi ko‘chat zichligi 1 kv. m suv yuzasiga 2 kg bo‘lganda) bir kecha-kunduzda 590 g, 1 l suvga 3 g parranda go‘ngi solingan ozuqa muhitida esa 450 go‘sgan. Kanopni qayta ishslash zavodlari, biokimyo zavodlari oqava suvlarida 330 va 320 g, 1 l suvga 5 g ot go‘ngi solingan ozuqa muhitiga esa 290 g dan ziyodroq, mineral ozuqa muhitida esa 240 g dan ko‘proqo‘sish bergen. Bunda ozuqa muhiti va oqava suvlarning harorati 20-28° S va pH 6,0-9,0 bo‘lgan.

Tajribalar asosida olingan natijaga asoslanib pistiyani ko‘paytirish uchun cho‘chqa go‘ngi, ammoniy sulfat, magniy sulfat va temir xlorid tuzlaridan iborat organo-mineral ozuka muhiti tavsiya etilgan.

Pistiya laboratoriya sharoitida va ochiq suv havzalarida ko‘paytirilganda uning voyaga yetgan ayrim vakillari balandligi 20-40 sm ni tashkil etadi. Ildiz tizimi popuksimon, uzun, kipriksimon ildizchalarga ega. Ildizi och, tiniq rang bo‘lib, 0,5-0,6 m va undan ham uzun bo‘lishi mumkin. Tanasi qisqa, barglari ponasimon ko‘rinishga ega. Bargning ustki qismi baxmalsimon yashil rangli, pastki qismi esa kumushsimon-yashil, 9-12 tagacha bo‘rtgan tomirlardan iborat. Bargining tuzilishi kovak bo‘lganligi uchun barg hujayrasi havo bilan

to‘lgan bo‘ladi, shu sababli pistiya suv yuzasida qalkib o‘sadi.

Pistiya ochiqhavoda aprel oyining ikkinchi yarmidan to noyabrigacha, issiqxonalar sharoitida esa yil davomida gullab turishi mumkin. Pistiya vegetativ yo‘li bilan hamda urugidan tez ko‘payish xususiyatiga ega, lekin unda vegetativ yo‘l bilan ko‘payish ustunlik qiladi. Vegetativ ko‘payish asosan barg qo‘ltig‘idan o‘sib chiquvchi novdalar (stolon) orqali kechadi. Novdalar uchida yangi pistiyalar rivojlanadi. Bu hol yoz bo‘yi davom etadi va kech kuzgacha bir necha bor takrorlanishi mumkin.

Ob-havo qulay kelishi bilan pistiya ko‘chatlari issiqxonalaridan ochiqhavzalarga chiqariladi. Aprel oyining oxiri va may oylarida pistiya tez o‘sib, o‘sish nuqtasidan markazga qarab, aylana bo‘lib ko‘payish organlari hosil bo‘la boshlaydi. Vegetatsiya davomida har bir o‘simlikda 4-5 tagacha aylana hosil bo‘lishi mumkin. Shunday qilib, barglarning hosil bo‘lishi markazdan tashqariga qarab, ko‘payish organlarining hosil bo‘lishi, gullashi va urug‘larning pishib yetilishi tashqaridan markazga qarab bo‘ladi (rasm 1).



rasm 1. Pistiyaning vegetativ ko‘payishi

Pistiyaning mevasi - quruq, bir xonali quticha shaklida, bir nechta

urug‘i bor. Meva xalta qobigi qalin va yashil rangda. Pishib yetilgan meva xaltasining po‘sti yupqalashib och qo‘ng‘ir ranga kiradi. Mevasi pishib yetilgach, meva xalta yoriladi va urug‘lar meva xaltadan tashqariga chiqadi. Undan bir qismi suv havzasining tagiga tushadi, bir qismi esa pistiyaning ildizlariga yopishib qoladi. Pishib yetilgan urug‘lar qo‘ngir rangda, pishib yetilmagani esa yashil rangda, urug‘i uzunchoq-silindr simon, 1,5x3 mm kattalikda bo‘ladi. Ming dona urug‘ining massasi 2,2 g ni tashkil etadi.

Pistiya urug‘ining tinchlik davri introduksiya sharoitixudditabiyy sharoitdagi kabi juda qisqadir. Qulay sharoit bo‘lganda (suv harorati 25-26° S va yorug‘lik yetarli bo‘lishi zarur) urug‘ urug‘xaltadan tashqariga chiqqach, 14 kundan keyin o‘sib boshlaydi. Pistiya urug‘ining o‘sib chiqishida yorug‘lik hal qiluvchi omillardan hisoblanadi, chunki harororat yetarli darajada bo‘lganda ham urug‘ qorong‘i joyda unib chiqmaydi. Pistiya urug‘i uzoq muddatli (60 kungacha) sovuq haroratda (3-5° S) ham chidamli bo‘lib, 14-16 kundan keyin o‘saveradi.

Laboratoriya sharoitida (distillangan suv, harorat 26-28°S va yorug‘lik albatta shart) urug‘ning unib chiqishi 72 foizni tashkil etadi (rasm 2).

Pistiyani urug‘idan ko‘paytirish usuli vegetativ yo‘li bilan ko‘paytirishga nisbatan bir qancha ustunliklarga ega. Bunda kuzgi-qishgi mavsumda uncha katta bo‘limgan idishlarda pistiya urug‘idan bahorda ekin uchun yetarli bo‘lgan ko‘chat yetishtirish mumkin. Pistiya urug‘ini tayyorlash uchun sentyabr-oktyabr oylarida voyaga yetgan pistiyalarni biror bir material ustiga silkitib yig‘ib olish mumkin. Yig‘ilgan pistiya urug‘larini shisha idishlarga solib, vodoprovod suvi yoki imkoniyati boricha distillangan suv qo‘yish kerak. Idishlar uncha katta va chuqur bo‘lmasligi va yorug‘lik tushish uchun kunduzgi chiroqlardan foydalanish mumkin. Unib chiqqan urug‘lar suv betiga qalkib chiqishi uchun imkoniyat bo‘lishi kerak. Urug‘ harorat 25° bo‘lganda yaxshi o‘nadi, haroratning pasayishi urug‘ o‘sib chiqishini sekinlashtiradi.



2 -rasm . Pistiya urug‘ining laboratoriya sharoitida ko‘payishi

Urug‘dan o‘nib chiqqan pistiyani 7-8 soat davomida yoritish kerak. Bunda kunduzgi chiroq-lampalardan foydalanish mumkin. Urug‘idan o‘nib chiqqan nihollarda bir necha ildiz paydo bo‘lganidan keyin suv yuzasigaqalkib chiqadi. Ular nafakat urug‘ endospermidan, balki mustaqil oziqlanishga o‘tadi, shuning uchun distillangan yoki vodoprovod suvini oqava suvi bilan almashtirish kerak. Shunday qilib issiqxonalarda urug‘idan undirilgan yosh nihollar, erta bahorda kunlar isishi bilan ochiqhavodagi tajriba uchun qurilgan hovuzchalarda ko‘paytiriladi va kerakli miqdordagi ko‘chatlar yetishtirilgandan keyin aprel-may oylarida ko‘chatlar chorvachilik komplekslari yoki sanoat korxonalarining biologik hovuzlariga ekiladi.

Pistiya o‘simgilini O‘zbekiston sharoitida keng miqdorda qo‘llashda, uning gullashini o‘rganish muhim axamiyatga ega. Uning o‘sishi uchun qulay sharoit bo‘lishi bilan, ya’ni aprel oyining oxiri, may oyining boshlarida tezlik bilan rivojlanishni boshlaydi.

O‘sish nuqtasidan markazga qarab, aylana bo‘ylab 4 ta barg hosil bo‘ladi va o‘s sa boshlaydi. O‘sayotgan har bitta barg qo‘ltig‘idan

generativ organlar hosil bo‘ladi. Hosil bo‘lgan barg va generativ organlar markazga qarab intilishadi. Shunday qilib, to‘pgullarning gullashi va meva hosil qilishi bo‘ladi.

Har bitta aylanada gullah vaqtiga 8-12 kunga to‘g‘ri keladi. Pistiya o‘simgining gullah vaqtiga ob-havo haroratiga 16-25 °S va yorug‘likka bog‘liq. Ularning ko‘p miqdorda gullahi, birinchi tupgul ochilgandan 45-55 kundan boshlanadi va 60-75 kun davom etadi.

Pistyaning o‘sib rivojlanishida 2 xil tupgul hosil bo‘lishi aniqlangan, ya’ni rangsiz va rangli urug‘chi gul. Ikkala tipdagi tupgullar faqat urug‘chi gullarga mansubligi aniqlangan (rasm 3).



Rasm 3. Pistyaning ikki xildagi to‘pguli.

Keyingi yillarda respublikada to‘qimachilik korxonalari ko‘paymokda, ularning rivojlanishi va ishlashi jadallahmoqda. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bir qatorda, korxonalardan chiqadiganchiqindilar va oqava suvlarning ham mikdori oshib

bormoqda. To‘qimachilik korxonalaridan chiqadigan oqava suvlarini biologik yo‘llar bilan tozalash, ya’ni suvlarda o‘suvchi har xil suvo‘tlar va yuksak suv o‘simliklari yordamida tozalash jarayonlarini jadallashtirish biotexnologiyasi hanuzgacha ishlab chiqilmagan.

NAZORAT SAVOLLARI

- 1. Biologik hovuzlarni vazifasi nimalardan iborat?**
- 2. Ifloslangan suv havzalarida doimiy ravishda yuksak suv o‘simliklaridan qaysilari o‘sib, rivojlanadi?**
- 3. Suv-botqoq o‘simliklari radioaktiv izotoplarni so‘rish qobiliyatiga ham egami?**
- 4. Pistiyaning bioekologik o‘sish xususiyatiga nimalar kiradi?**
- 5. Pistiyani laboratoriya sharoitida va ochiq suv havzalarida ko‘paytirish tajribalarini gapirib bering?**
- 6. Pistiya urug‘ini qanday sharoitda ko‘paytirish mumkin?**
- 7. To‘qimachilik korxonalaridan chiqadigan oqava suvlarini biologik yo‘llar bilan tozalash, ya’ni suvlarda o‘suvchi har xil suvo‘tlar va yuksak suv o‘simliklari yordamida tozalash jarayonlarini jadallashtirish biotexnologiyasini tushuntirib bering?**

IV BOB. TO‘QIMACHILIK KORXONALARI OQAVA SUVLARINING UMUMIY TA’RIFI

To‘qimachilik korxonalarining texnologiyasi

Paxta-kogoz korxonalari ishlab chikarishi ip-yigiruv, tukimachilik varanglash qismlariga bo‘linadi (Vasilev, 1959).

Bu sanoat korxonalari uchun asosiy xom ashyo paxta hisoblanib, uning tarkibi boshqa o‘simliklar tolasidan, ya’ni kanop va zig‘irdan farqlanadi. Paxta tolasi tarkibi quyidagilardan iborat, (foiz hisobida). sellyuloza – 94; pektin moddalar - 0,9; organik kislotalar - 0,8; azotli birikmalar oqsil bilan birgalikda - 1,3; mumsimon moddalar - 0,6; kantlar - 0,3; kul modasi - 1,2; boshqa moddalar - 0,9; Jami 100,0 paxta maydonlarida terilgan paxtalar tozalash korxonalariga jo‘natilib, u yerda paxta chigitidan va chanoqdan tozalanib, ip-yigiruv fabrikalariga uzatiladi. Ip-yigiruv fabrikalarida tolalar qayta ishlanib, ip yigiriladi va ranglanadi. To‘qimachilik fabrikalarida esa ranglangan iplardan har xil gazlamalar tayyorlanadi. Iplarning mustahkamligini oshirish maqsadida qotiriladi. Qotirish ishlari maxsus stanoklarda amalga oshiriladi.

Oqartirish fabrikalarida sellyulozadan boshqa qo‘silmalarni yo‘qotish uchun kimyoviy ishlov beriladi. Ishlov berish vaqtida gazlamalar 10-12 foiz ranglar aralashmasini, 6 foiz paxta aralashmasini, 4-5 foiz shlixtalarni, 1 foiz paxtani, mexanik ifloslanishini o‘z tarkibida saqlaydi. Gazlamalarni oqartirishda quyidagi reagentlar qo‘llaniladi (foiz hisobida):

Quruq natriy - 3,5-4,5; kalsiyglashtirilgan soda - 0,8; sulfat kislota - 1,8-2,8; aktivlashtirilgan xlor - 0,3; vodorod perekisi - 2,0; natriy silikati - 1,2-2,0; OP-Yu preparati - 0,15-0,2.

1 tonna paxtaga ishlov berish uchun quruq natriy 5 foiz, kalsiyglashtirilgan soda 1 foiz, sulfat kislota 4 foiz, xlor 1,5, OP-Yu 10 foizgacha sarflanadi. Paxta mahsulotidan tayyorlangan gazlamalarni muhrlash va ranglashda ko‘pgina reagentlar ishlatiladi.

1tonna gazlamaga sarf bo‘ladigan reagentlar (kg hisobida):

ranglar - 5-6,5

aralashma - 4,0-6,6

kraxmal - 25-30

KSM - 5-7

Glitserin - 0,5-18

Natriy uksusi - 4,6

Osh tuzi - 15-30

Sulfnil OP - 10

Shpatel material uchun - 10-25

TMS:

Paxta materiali uchun 1-3; karbamol - 60- 68; metazin - 16-20;
natriy xromnik - 2-3,5.

Oqava suvlarining miqdori

Ip-yigiruv va to‘qimachilik fabrikalarining quvvati va
chiqaradigan mahsulotlarning hajmiga qarab, hosil bo‘lgan oqava
suvlarni o‘rtachasarflanish miqdori 1 tonna tola, ip, gazlama uchun
(m³hisobida):

- a) to‘qimachilik korxonalarida qotirish uchun -1,0-1,2
- b) oqartirish fabrikalarida iplarni oqartirish - 200

Paxtani gigroskopik holatga keltirish uchun: oqartirish - 180-240,
gazlamalarni oqartirish –120,gazlamalarni to‘xtovsiz oqartirish –
100,gazlamalarni merserizatsiyalash – 27.

v) ranglash va pechatlash fabrikalarida vaqtি bilan paxtani
ranglash – 70, paxtani joyida ranglash – 135, iplarni KIV-1 apparatida
ranglash – 70, iplarni PK-1 apparatida ranglash – 190, pechatlangan
gazlamalar -30, gazlamalarni yuvish – 70.

Oqava suvlarning tarkibi

Ip-yigiruv va to‘qimachilik fabrikalarida oqava suvlar
havoningnamlash sistemalarini yuvish va qotirish bo‘limlarida hosil
bo‘ladi. Havoning namlash sistemasidagi oqava suvlar shartli ravishda
toza suvbo‘lib, odatdagi vodoprovod suvidan farq qiladi. Bu suvlarda
muallaq moddalar yuqori darajadadir.

Qotirish bo‘limidan chiqadigan oqava suvlar organik va mineral
moddalar aralashmasi bilan kuchli ifloslangan bo‘ladi.

Suvdagи muallaqholdagi moddalar, mg/l - 170

Suvda erimaydigan moddalar, mg/l - 780

Suvdagи organik moddalarning oksidlanishi, mg/l - 800

Kislородning biokimyoviy jarayonlar uchun 5 kecha-kunduzdagи

sarfi, mg/l - 600

pH muxiti - 6,5

Azot, mg/l - 14

Sulfatlar, mg/l - 1380

To‘qimachilik fabrikalarining ishlash jarayonida 60-80 foizliifloslangan hamda 20-40 foizli kam ifloslangan suvlar hosil bo‘ladi. Bir tonna oqartirilgan gazlamadan oqava suvlarga 80-100kg organik birikmalar, paxtaning tabiiy qo‘shilmalari, aminokislota, metil spirti 75-90 kg, mineral tuzlar va boshqalar tushadi.

Bu organik va mineral birikmalar ta’sirida 1500-2000 mg/l suvda erimaydigan moddalar, mineralizatsiya esa 45-50 foizga yetadi.

Bir tonna gazlamani ishlov berishda oqava suvlarning organik ifloslanishi 35-60 kg, KBS₅ esa 90-92 foizgacha bo‘ladi. Kisloti, ishqorlar, oksidlovchilar organik aralashmalarda saqlanib qoladi. Oqartgich mashinalardan chiqadigan iflos oqava suvlarda ranglar bo‘ladi. Yuvuvchi mashinalardan chiqadigan kam ifloslangan suvlar shartli ravishda toza suv hisoblanib, tiniqligi 10-15 sm, suvdagi muallaq moddalar 10-20 mg/l, faol reaksiya neytrallanishga bog‘liq.

Oqartgich fabrikalardan chiqadigan oqava suvlarning umumiy xarakteristikasi 1 va 2 jadvallarda ko‘rsatilgan (Vasilev, 1959).

Akademik N.S.Postnikovning ma’lumotiga ko‘ra, oqartirgich sexlaridan chiqadigan oqava suvlarda uglerod va umumiy azotning yuqoriligi kuzatilgan. Yuqori mineralizatsiya asosan natriy tuzlari hisobiga bo‘ladi. Ranglash fabrikalarida ranglangan va pechatlangan gazlamalarni yuvish vaqtida xamda rang aralashmalarni kanalizatsiyaga yuborish natijasida oqava suvlar hosil bo‘ladi. Ranglash apparatlarini yuvishda 15-20% gacha oqava suvlar hosil bo‘ladi.

Gazlamalarni ranglash vaqtida oqava suvlarda suvda erimaydigan moddalar (800-4000 mg/l) mineralizatsiya darajasi 50-75% ni tashkil etadi. Spesifik tarkibiga ko‘ra oqava suvlarda mis kuporosi va ammoniy sulfattuzlari uchraydi.

Ranglarning tarkibi 20-40% organik moddalardan tashkil topgan bo‘lib, shu vaqtdagi oqava suvlarda erimaydigan moddalar (600-700 mg/l), mineralizatsiya 40-65 foizdir. Tajribalardan shu narsa

aniklandiqi, bioximik jarayonlarda okova suvlarda kislorodning sarflanishi 65-90 foizdir. 1 tonna tayyorlangan gazlamadan okova suvning tarkibida erigan moddalar mikdori 200 kg, shundan- 30-40 foizi kulsiz.

1- jadval

Oqartgich mashinalarda ifloslangan oqava suvlarning xarakteristikasi

Ko'rsatgich-lar	Gazlamalar rassht-rixovka-si	Gazlama-larni yuvish	To'ldiril gan dan so'nggi yuvish	To'ldiril gandan keyingi ikkinchi yuvish	Umumiy Oqim
Harorat°S	15-25	21-30	52-100	15-16	25-42
Rang	Sariq	Jigarrang	Oqish	Loyqa-sariq	Oq-sariq
Hidi	Kuchsiz	Yo‘q	yo‘q	Yo‘q	yo‘q
Tiniqligi, sm	1,5	3	0,5	P P	0,5-2
Muallaq holda, mg	315	138	1930	220	224-170
Suvda erimaydigan moddalar, mg/l	2200	888	1480	650	2260-1180
Oksidlanish darajasi, mg/l	800	310	2030	82-286	650-440
KBS ₅ , mg/l	1260	350	2620	73-141	535-1400 535-1100
rH	6,75-8,5	2,5	11	7,2-10	8-9,7
Umumiy azot, mg/l	45	36	5,5	14	30-32

Xloridlar, mg/l	90	34	180	12	80-85 80-85
Sulfatlar, mg/l	82	67	480	10	206
Uglerod, mg/l	256	205	2380	-	-

2-jadval

**Oqartirgich fabrikalaridan chiqadigan umumi oqava
Suvlarning xarakteristikasi**

Ko'rsatgichlar	Umumiy oqim		AOJ-2 agregatidan chiqadigan oqava suv
	Chegaraviy Miqdor	O'rtacha miqdor	
Harorat, °S	18-22	20	-
Rangi	Sarik	Sarik	Sarik
Hidi	Kuchsiz	Ishqorli	
Tiniqligi, sm	1,25	2,5	1-2
Muallaq moddalar, mg/l	320-700	300	400
Suvda erimaydigan moddalar, mg/l	540-830	1500	1500
Oksidlanish darajasi, mg/l	140-388	250	175
KBS ₅ , mg O ₂ /l	200-540	300	350
KBS ₂₀ MGO ₂ /L	250-595	350	400
rH	6,8-9,7	10	10-11
Ammiak, mg/l	9-14	12	6-9
Xloridlar, mg/l	150-320	150	150
Sulfatlar, mg/l	80-320	157	85

Gazlamalarni ranglashda hosil bo'ladigan oqava suvlarning tarkibidagi organik ifloslanish KBS₅ hisobidan bir tonnaga 70-80 kg ni tashkil qiladi.

Oqartuv-ranglovchi fabrikasi oqava suvining tarkibidagi organik

